1. обязывать, связывать обязательством, создавать обязательство; 2. задерживать; ограничивать; ~ a bargain скрепить сделку (подписью); ~ duties обязываться не повышать пошлины; ~ over предписывать (действие, поведение); ~ over to appear обязать явиться в суд.	1.majburiyat yuklamoq, zimmasiga yuklamoq; 2. to'xtatib turmoq, ushlab turmoq; cheklamoq, chegaralamoq; ~ **a bargain** shartnomani mustahkamlamoq (imzo bilan); ~ **duties** bojni oshirmaslik bo'yicha majburiyat; ~ **over** yo'l-yo'riq, maslahat bermoq (harakat, xulq-atvor); ~ **over to appear** sudga kelishlik majburiyati.
BINDER	
временный страховой документ (до оформления полиса).	vaqtinchalik sug'urta hujjati (polisni rasmiylashtirishdan oldin).
BINDING	
1. обязательство; 2. обязывающий, имеющий обязательную силу;	1. majburiyat; 2. majburiyat yuklovchi,

обязательный, связующий; ~ authority обязательный авторитет (источники закона, которые должны приниматься во внимание при вынесении решения по делу); ~ **by oath** приведение к присяге; ~ **force** обязательная сила; **legally** ~ юридически обязательный.	majburiy kuchga ega bo'lgan; majburiy;~ authority majburiy e'tibor (ish yuzasidan qaror qabul qilishda e'tiborga olinishi zarur bo'lgan qonun manbalari); ~ **by oath** qasamyod ichishga olib kelish;~ **force** majburiy kuch; **legally** ~ huquqiy jihatdan majburiy.
BIPARTITE	
1. двусторонний; 2. состоящий из двух частей.	1.ikki tomonlama; 2. ikki qismdan iborat bo'lgan.
BIRTH	
рождение; ~ **certificate** свидетельство о рождении; ~ **of issue** рождение потомства; ~**right** 1. право первородства; 2. право по рождению; **out-of-wedlock** ~ рождение ребенка вне брака.	tug'ilish; ~ **certificate** tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma; ~ **of issue** avlodning davom etishi; ~**right** 1.to'ng'ich farzandning huquqi; 2.tug'ilgandan kelib chiqadigan huquq; **out-of-wedlock** ~ nikohsiz bolaning tug'ilishi.
BLACKLEG	
штрейкбрехер; быть штрейкбрехером.	shtreykbrexer (ish tashlash vaqtida ish tashlamagan shaxs).
BLACKLIST	
черный список, список несостоятельных должников; ~**ing** занесение в черный список, составление черных списков.	qora ro'yxat, to'lay olmaydigan qarzdorlar ro'yxati; ~**ing** qora ro'yxatga kirgizmoq, qora ro'yxat tuzmoq.
BLACKMAIL	
1. шантаж, вымогательство; 2. шантажировать; ~**er** шантажист.	1.tovlamachilik. 2. tovlamachilik qilmoq, shantaj qilmoq; ~**er** tovlamachi.
BLACK-MARKET	
черный рынок; ~**eer** торговец, спекулянт на черном рынке.	qora bozor; ~**eer**- qora bozorda sotuvchilik (chayqovchilik) qilmoq
BLADING	
накладная.	yuk hujjati.
BLAME	

place on the auction ~ выставить имущество (должника) на аукционную плаху.	**place on the auction** ~ mol-mulkni (qarzdorning) auksionga qo'ymoq.
BLOCKADE	
1. блокада; 2. блокировать; ~ **running** нарушение блокады, нарушающий блокаду; **breach of** ~ прорыв блокады; **establish** ~ установить блокаду; **lift/raise the** ~ снимать блокаду; **run** ~ прорывать блокаду.	1.blokada, qamal; 2. qurshamoq, to'smoq;~ **running** qamalni buzilishi; **breach of** ~qamalni yorib o'tmoq; **establish** ~qamal o'rnatmoq; **lift/raise the** ~qamalni olib tashlamoq; **run** ~qamalni yorib o'tmoq.
BLOCKED	
замороженный, блокированный; ~ **accounts** блокированные счета.	muzlatilgan, to'xtatib turmoq; ~ **accounts** hisoblarni to'xtatib turmoq.
BLOOD	
1. кровь; 2. лишение жизни; 3. вина в совершении убийства; ~ **base** незаконнорожденность; ~**-half** дети, имеющие одного общего родителя; **hot** ~ аффект, сильное душевное волнение; ~ **relation** кровное родство; **mixed** ~**s** лицо смешанной крови (метис, мулат и т. п.); **whole** ~ дети, имеющие общих родителей.	1.qon; 2. hayotidan mahrum qilmoq; 3. odam o'ldirish jinoyatini sodir qilishdagi aybdorlik; ~ base noqonuniy tug'ilish; ~ **-half** umumiy ota yoki onaga ega bo'lgan bolalar; **hot** ~ ta'sir, kuchli ruhiy hayajonlanish; ~ **relation** qonli qarindosh; **mixed** ~**s** qoni aralash shaxs (metis, mulat va b.); **whole** ~ umumiy ota-onaga ega bo'lgan bolalar.
BLOOD-GUILTY	
Виновный в убийстве.	odam o'ldirish jinoyatini sodir qilgan aybdor.
BLOOD-MONEY	
1. плата наемному убийце; 2. деньги, которые платят свидетелю за дачу показаний, поддержавших обвинение в преступлении, караемом смертной казнью.	1. yollanma qotilga to'lanadigan pul; 2. o'lim jazosi bilan jazolanadigan jinoyatga yolg'on guvohlik berishi uchun guvohga to'lanadigan pul.
BLOT	
пятно; ~ on title дефект правового титула.	dog'; ~ **on title** huquqiy tituldagi nuqson.

~ **of justices** судейская коллегия; ~ **of review** комиссия по рассмотрению заявлений об ошибках в списках лиц и имуществ, подлежащих налогообложению; ~ **of trustees** опекунский совет, совет доверенных лиц; **administrative** ~ административный совет; **executive** - исполнительный орган; **municipal** ~ муниципальное управление; **pardon** ~ совет по помилованию; **parole** ~ совет по условно-досрочному освобождению; **review** ~ наблюдательный совет (в тюрьмах); **trade** ~ комиссия по вопросам заработной платы (в отраслях промышленности); **workman's compensation** ~ совет по вопросам выплаты компенсации.	~ **of creditors** - kredit beruvchilar kengashi;~ **of directors** boshqarma, direktsiya; ~ **of justices** sud kollegiyasi;~ **of review** soliq to'lovchilar hamda mulk ro'yxatida mavjud kamchiliklarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiya;~ **of trustees** vasiylar kengashi, ishonchli vakillar kegashi; **administrative** ~ ma'muriy kengash; **executive** – ijro organi; **municipal** ~munisipal boshqaruv; **pardon** ~afv etish bo'yicha kengash; **parole** ~ shartli suratda muddatidan oldin ozod etish masalalari bo'yicha kengash; **review** ~ qamoqxonalarda kuzatuv ishlari bo'yicha kengash; **trade** ~ishlab chiqarish sohasida ish haqlarini belgilash bo'yicha kengash; **workman's compensation** ~tovon (badal)ni to'lash masalalari bo'yicha kengash.
BODILY	
1. физический, телесный; 2. лично, собственной персоной; 3. целиком; ~ **harm/injury** телесное повреждение; ~ **security** личная неприкосновенность.	1.jismoniy, badanga oid; 2. shaxsan, aynan o'zi; 3. butunlay; ~ **harm/ injury** jismoniy shikast; ~ **security** shaxsiy daxlsizlik.
BODY	
1. орган; организация; 2. группа; коллегия; 3. главная часть, основная часть (документа); 4. совокупность, комплекс; 5. тело, труп; 6. сборник (законодательных актов); ~ **corporate** корпорация, юридическое лицо, правосубъектная организация; ~ **corporate and politic** публичная корпорация, муниципальная корпорация;	1.organ; tashkilot; 2. guruh; kollegiya; 3. asosiy qism (hujjatning); 4. jami, majmui, kompleks; 5. tana, murda; 6. to'plam (qonunchilik hujjatlari);~ **corporate** korporatsiya, yuridik shaxs, huquqqa ega bo'lgan tashkilot; ~ **corporate and politic** xalq korporatsiyasi, munisipal korporatsiya;

~ **of justice** основные принципы правосудия; ~ **of laws** совокупность правовых норм; ~ **of legislation** законодательный орган; ~ **of the crime** состав преступления; **artificial** ~ юридическое лицо; **auxiliary** ~ вспомогательный орган; **deliberative** ~ совещательный орган; **examining** ~ 1. ревизионная комиссия 2. экспертная комиссия; **heir of the** ~ наследник по нисходящей линии; **law enforcing** ~ 1. правоприменяющий орган; 2. полицейский орган; **law-making/legislative** ~ законодательный орган; **oversight** ~ орган надзора; **protective** ~ охранительный орган.	~ **of justice** odil sudning asosiy prinsiplari; ~ **of laws** huquqiy normalara majmuasi; ~ **of legislation** qonun chiqaruvchi organ; ~ **of the crime** jinoyat tarkibi; **artificial** ~ yuridik shaxs; **auxiliary** ~ yordamchi organ; **deliberative** ~ kengash organi; **examining** ~ 1. reviziya o'tkazish komissiyasi 2. ekspert komissiyasi; **heir of the** ~ pastlab boruvchi jarayondagi voris; **law enforcing** ~ 1. huquqni amalga tatbiq etish organi; 2. militsiya organi; **law-making/legislative-** qonun chiqaruvchi organ; **oversight** ~ nazorat organi; **protective** ~ qo'riqlash organi.
BODY-GUARD	
личная охрана; телохранитель.	shaxsiy qo'riqchi.
BOGUS	
1. подделка, фальшивка; 2. поддельный, фальшивый, фиктивный.	1. qalbaki, soxta; 2. qalbaki, soxta, fiktiv, yolg'on.
BOGY	
разг. полицейский, сыщик, осведомитель.	og'z. politsiyachi, ma'lumot beruvchi.
BOLSTERING	
1. подкрепление; 2. ошибочное использование стороной пункта доказательства.	1.qo'shimcha kuch; 2. xato isbotlash.
BONA FIDE	
лат. 1. добросовестно, честно, без обмана; 2. добросовестный, честный; ~ **error** непреднамеренная ошибка.	lot. 1. vijdonan, insof bilan, aldovsiz; 2. vijdonli, halol; ~ **error** bilmasdan qilingan xato.
BONA FIDES	
лат. добросовестность, честность.	lot. halollik, to'g'rilik.

BOND	
1. обязательство, денежное обязательство, долговое обязательство; облигация; бона; 2. обеспечение, залог; 3. обеспечивать обязательством; 4. закладная; гарантия; 5. закладывать; 6. оставлять (товар) на таможне до уплаты пошлины; 7. поручитель, поручительство; 8. тюрьма, тюремное заключение; ~ **for appearance** письменное обязательство явиться; ~ **for costs** обязательство в обеспечение уплаты расходов по делу; ~ **for title** договор о передаче правового титула под отлагательным условием; ~ **of appeal** обязательство возместить понесенные ответной стороной издержки по апелляции; ~ **of obligation** долговое обязательство; ~ **rating** курс облигаций; ~ **refunding** дополнительное финансирование за счет выпуска облигаций; ~ **to bearer** облигация на предъявителя; **appeal** ~ обязательство апеллянта оплатить убытки в случае неудовлетворения апелляции; **appearance bail** ~ обязательство явки (в суд) под поручительством; **average** ~ аварийная подписка, аварийный бонд, аварийная гарантия; **bail** ~ поручительство за явку ответной стороны в суд; **claim** ~ обязательство должника передать по требованию имущество, в отношении которого состоялось решение; **cost** ~ обязательство возместить расходы по делу;	1.majburiyat, qarz majburiyati; obligatsiya; bona (saqlovchiga ma'lum miqdorda foyda olishga huquq beradigan hujjatlar, kredit qog'ozlari); 2. ta'minlamoq, garov; 3. majburiyatni ta'minlamoq; 4. garovga oid; kafolat; 5. garovga qo'ymoq; 6. bojlarni to'lagunga qadar bojxonada (tovarlarni) qoldirmoq; 7. kafil, kafillik; 8. qamoq, qamoqqa **olmoq**;~ **for appearance** hozir bo'lishga, ishtirov etishga yozma majburiyat;~ **for costs** ish bo'yicha xarajatlarni to'lashga oid majburiyat;~ **for title** saqlab qo'yish **sharti** bilan huquqiy titulini (maqomini) topshirish haqida bitim ~ **of appeal** –appelyatsiya bo'yicha javobgar tomonidan keltirilgan zararni qoplash oqibatida sarflangan xarajatlarni to'lash haqida majburiyat; **of obligation** ~qarzdorlik majburiyati; ~ **rating** obligatsiya (zayom) kursi; ~ **refunding** zayom chiqarish hisobiga mablag' bilan qo'shimcha ta'minlash; ~ **to bearer** taqdim etuvchiga zayom; **appeal** ~ appelyatsiya qondirilmagan holatda zararni to'lash uchun appelyatsiya beruvchining majburiyati; **appearance bail** ~yozma topshiriq asosida sudda ishtirok etish; **average** ~avariynaya podpiska, avariyno'y bond, avariynaya garantiya; **bail** ~javobgar tomonning sudda qatnashish uchun unga berilgan yozma topshiriq;

custom(s) ~ таможенная накладная; **double** ~ условное денежное обязательство; **forthcoming** ~ обязательство должника передать по требованию имущество, в отношении которого состоялось решение; **general mortgage** ~ закладная на все имущество корпорации; **guarantee/indemnity** ~ гарантийное обязательство; **government ~s** государственные облигации; **hypothecation** ~ ипотечная закладная; закладная по бодмерее; **legal** ~ правовая связь; **mortgage** ~ ипотечная закладная; **official** ~ подписка о надлежащем исполнении должностных обязанностей; **participating** ~ облигация, дающая право на участие в распределении прибыли; **penal** ~ обязательство о выплате штрафной неустойки; **redelivery** ~ обязательство передачи присужденного имущества в обмен на право временного владения таковым; **registered** ~ именная облигация; **simple** ~ 1. безусловное денежное обязательство; 2. денежное обязательство без штрафа; **single** ~ безусловное денежное обязательство; **submission** ~ третейская запись; **supersedeas** ~ обязательство апеллянта по обеспечению исполнения решения и возмещения ущерба вследствие отсрочки исполнения решения.

claim ~sud qarori qarzdor foydasiga hal etilgan bo'lib mulk talab qilingan holatda qarzdor tomonidan qaytarib berish majburiyati; **cost** ~ish yuzasidan sarf-xarajatlarni qoplash majburiyati; **custom(s)** ~ bojxona nakladnoyi (bojxona tomonidan yukka berilgan hujjat); **double** ~shartli pul tarzidagi majburiyat; **forthcoming** ~ sud qarori qarzdor foydasiga hal etilgan bo'lib mulk talab qilingan holatda qarzdor tomonidan qaytarib berish majburiyati; **general mortgage** ~korporatsiyaning barcha mulkiga berilgan garov xat; **guarantee/ indemnity** ~ kafolat majburiyati; **government ~s** davlat zayomlari; **hypothecation** ~ ipoteka garov xati; **бодмера** bo'yicha garov xat; **legal** ~huquqiy aloqa; **mortgage** ~ipoteka garov xati; **official** ~ xizmat burchlarini munosib bajarish haqida tilxat; **participating** ~foyda taqsimotida ishtirok etishga huquq beruvchi obligatsiya; **penal** ~ jarima neustoykasini (shartnomadgia biror majburiyatni vaqtida bajarmaganlik uchun to'lanadigan jarima) to'lash haqida majburiyat; **redelivery** ~ sud qarori asosida berilgan mulkni vaqtincha egalik qilish uchun huquqiga almashtirish uchun topshirish haqida majburiyat **registered** ~ maxsus ro'yxatdan o'tgan obligatsiya; **simple** ~ 1. pul shaklidagi mutlaq majburiyat; 2. jarimasiz pul shaklidagi majburiyat;

	single ~ pul shaklidagi mutlaq majburiyat; **submission** ~ hakamlarga taqdim etilishi; **supersedeas** ~ shikoyat qiluvchining qaror ijrosini ta'minlash va qaror ijrosi kechikkanligi oqibatida ko'rilgan zararni to'lash haqida majburiyati.
BONDED	
1. обеспеченный облигациями, обеспеченный обязательством; 2. находящийся в залоге на таможенном складе (о товаре).	1. obligatsiyalar bilan kafolatlangan, majburiyat bilan ta'minlagan; 2. bojxona omborida garovda turgan (tovarlar).
BONDHOLDER	
держатель облигаций, облигационер.	obligatsiya egasi.
BONDSMAN	
поручитель; **bail** ~ поручитель под залог (при передаче на поруки).	kafil; **bail** ~ garov evaziga kafil bo'lgan kishi.
BONIFICATION	
освобождение от налога.	soliqlardan ozod qilish.
BONIS NON AMOVENDIS	
лат. судебный приказ о неизменении местонахождения предмета спора.	lot. tortishuv predmeti o'zgarmasligi to'g'risidagi sud buyrug'i.
BONUS	
1. бонус; премия; вознаграждение; 2. льгота; 3. добавочный дивиденд, надбавка; 4. сумма, выплаченная сверх цены; ~**-job** сдельная работа.	1.bonus; mukofot; 2. imtiyoz; 3. qo'shimcha divident, ustama haq; 4. o'z bahosidan yuqori narxda to'langan summa; ~**-job** ishbay mehnat.
BOODLING	
коррупция, дача взятки.	korruptsiya, pora bermoq.
BOOK	
1. книга, журнал (для записей); 2. занести в книгу, зарегистрировать; 3. досье судебных документов; 4. фрахтовать (судно); 5. ангажировать (актера); ~ **of acts** протоколы производства в суде по наследственным делам (в США);	1.kitob, jurnal (yozish uchun); 2. kitobga kiritmoq, ro'yxatga olmoq; 3. sud hujjatlari to'plami; 4. yuk tashishga kema yollamoq; 5. taklif etmoq (aktyorni); vorislik ishlari bo'yicha sudda ish yuritish (AQSh);

~ **of complaints** книга жалоб; ~ **of precedents** сборник судебных прецедентов; **accounts** ~ бухгалтерская книга; **bring to** ~ занести в досье, зарегистрировать; **business** ~ торговая книга; **cash** ~ кассовая книга; **check** ~ чековая книжка; **employment** ~ расчетная книжка; **judgement** ~ книга записи судебных решений; **juror's** ~ список присяжных; **jury** ~ список лиц, из которых выбираются присяжные для рассмотрения конкретных дел; **marriage notice** ~ книга уведомлений о бракосочетаниях; **saving** ~ сберегательная книжка.	~ **of complaints** shikoyat daftari; ~ **of precedents** sud pretsedentlari majmuasi; **accounts** ~ buxgalteriya kitobi; **bring to** ~ biror shaxs haqida ma'lumotlar to'plamiga kiritish, ro'yxatga olish; **business** ~ savdo daftari; **cash** ~ g'azna daftari; **check** ~ chek daftari; **employment** ~ hisob-kitob daftari; **judgement** ~ sud qarorlarini yozib borish daftari; **juror's** ~ sud maslahatchilari ro'yxati; **jury** ~ muayyan ishni ko'rib chiqish uchun sud maslahatchilari tanlab olinadigan shaxslar ro'yxati; **marriage notice** ~ nikoh ahdi haqida bildirish daftari; **saving** ~omonat kassa daftarchasi.
BOOKED	
1. заказанный, зафрахтованный; 2. зарезервированный, зарегистрированный, запротоколированный.	1. buyurtma qilingan, yuk tashishga yollangan; 2. zahira qilib qo'yilgan, ro'yxatga olingan, protokolga yozib qo'yilgan.
BOOKKEEPER	
счетовод, бухгалтер.	hisobchi, buxgalter.
BOOKKEEPING	
ведение бухгалтерских книг; бухгалтерский учет.	buxgalteriya hisobini yuritmoq; buxgalteriya hisobi.
BOOKMAKER	
букмекер (лицо, принимающее денежные ставки при игре в тотализатор).	bukmeker (totalizatorda tikilgan pullarni qabul qiluvchi shaxs).
BOOT	
доход, прибыль; выигрыш.	daromad, foyda; yutuq.
BOOTLEGGER	
бутлегер; незаконный торговец спиртными напитками или другими товарами, находящимися в ограниченном обращении.	butleger; muomalasi cheklangan deb topilgan spirtli ichimliklar yoki boshqa tovarlarni noqonuniy sotuvchi shaxs.

BOOTLEGGING	
бутлегерство; незаконное производство и торговля спиртными напитками или другими запрещенными товарами.	butlegerlik; muomalasi cheklangan deb topilgan spirtli ichimliklar yoki boshqa tovarlarni noqonuniy sotish.
BORDER	
1. граница; 2. граничить; ~ **search** приграничный досмотр.	1. chegara; 2. chegaralamoq; ~ **search** chegara tekshiruvi.
BORDERLAND	
пограничная полоса.	Chegara chizig'i.
BORN	
рожденный, родившийся; ~ **out of wedlock** рожденный вне брака; ~ **posthumously** родившийся после смерти родителя.	tug'ilgan; ~ **out of wedlock** nikohsiz tug'ilgan;~ **posthumously** ota-onaning o'limidan so'ng dunyoga kelish.
BOROUGH	
город, городской район, имеющий самоуправление; ~ **English** переход недвижимости к младшему сыну; **county** ~ городское поселение с правами графства; **metropolitan** ~ столичное городское поселение, столичный муниципальный район (в Лондоне); **municipal** ~ 1. город, имеющий самоуправление; 2. район Нью-Йорка.	shahar, shahardagi tuman, o'zini o'zi boshqarish;~ **English** ko'chmas mulkni kichik farzand (o'g'il) ga o'tishi; county ~ graflik huquqlariga ega bo'lgan shahar tipidagi yashash joyi; **metropolitan** ~ poytaxt maqomidagi shahar, poytaxt ichidagi munisipal tuman (Londonda); **municipal** ~ 1. o'z-o'zini boshqaruv huquqiga ega bo'lgan shahar; 2. Nyu-York hududi (tumani).
BORROW	
1. занимать (деньги); 2. заимствовать; ~ **at high interest** занимать деньги под большие проценты.	1.qarz olmoq; 2. olmoq; ~ **at high interest** katta protsentda qarz olmoq.
BORROWED CAPITAL	
заемный капитал.	qarz mablag'i.
BORROWER	
заемщик; ссудополучатель.	qarz oluvchi, ssuda oluvchi.
BORROWING	
заем, кредит.	zayom, kredit.

BORSTAL	
Борстал (пенитенциарное учреждение в Великобритании для преступников в возрасте от 16 лет до 21 года); **open** ~ борстальское учреждение открытого типа; **training** ~ борстал, в котором молодые заключенные подвергаются исправительному обучению.	Borstal (Buyuk Britaniyada 16 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan jinoyatchilarni saqlash binosi); **open** ~ochiq tipdagi Borstal tashkiloti; **training** ~ qamoq jazosiga hukm qilingan yoshlarni axloq tuzatishga o'rgatish.
BOTE	
компенсация.	kompensatsiya, tovon.
BOTTOMRY	
бодмерея, морской заем, морской залог (заем под залог судна, фрахта и груза, получаемый капитаном от их владельцев).	Bodmereya, dengiz sohasidagi zayom, dengiz sohasidagi garov (kapitan tomonidan kemaga qo'yilgan garov, yuk egalaridan yukni tashishi uchun olinadigan kira haqi).
BOUND	
1. граница; 2. граничить; 3. ограничение; 4. ограничивать; 5. обязанный, связанный обязательством; ~ **to service** военнообязанный; **constitutional** ~ пределы действия конституции; **lawfully/legally** ~ юридически обязанный, обязанный по закону; **outward** ~ охраняемая территория за пределами пенитенциарного учреждения, на которой работают заключенные.	1. chegara; 2. chegaradosh bo'lmoq; 3. cheklash; 4. chegaralamoq; 5. majburiy bo'lgan, majburiyat bilan bog'liq bo'lgan;~ **to service** –harbiy majburiyatli; **constitutional** ~ konstitutsiyaninig amal qilish chegarasi; **lawfully/ legally** ~yuridik jihatdan majburiy, qonun bo'yicha majburiy; **outward** ~ penitentsiar tashkiloti hududiga kirmaydigan mahbuslar ishlaydigan qo'riqlanadigan hudud.
BOUNDARY	
1. граница, межа; 2. пограничный знак; **fiscal ~ies** налоговый округ; **magisterial ~ies** судебный округ; **maritime** ~ морская граница; **natural** ~ естественная граница; **state** ~ государственная граница.	1. chegara, oraliq; 2. chegara belgisi; **fiscal ~ies** soliq okrugi; **magisterial ~ies** sud ishlari bo'yicha okrug; **maritime** ~ dengiz chegarasi; natural ~ tabiiy chegara; **state** ~davlat chegarasi.

BOUNTY	
1. субсидия; правительственная премия; 2. призовая премия.	1. subsidiya; davlat mukofoti; 2. sovrin.
BOURSE	
фондовая биржа.	fond birjasi.
BOX	
1. ящик; 2. упаковывать в ящики; 3. место для дачи свидетельских показаний в суде; **ballot** ~ избирательная урна, баллотировочный ящик; **jury** ~ скамья присяжных;	1. yahik, quti; 2. qutilarga joylamoq; 3. sudda guvohlik qilish joyi; **ballot** ~ saylov qutichasi; **jury** ~sud maslahatchilavri kursi;
prison ~ тюремный бокс; **prisoner's** ~ скамья подсудимых; **safe-deposit** ~ банковский сейф для хранения ценностей; **sweat** ~ карцер; **witness** ~ место для дачи свидетельских показаний.	**prisoner's** ~sudlanuvchilarning kursi; **safe-deposit** ~qimmatbaho buyumlarni saqash uchun bank seyfi; **sweat** ~ kartser (aybdorni jazolash uchun vaqtincha qamab qo'yadigan yakka qamoq); **witness** ~sudda so'roq berish uchun guvohlar uchun joy.
BOYCOTT	
1. бойкот; 2. бойкотировать; **put under** ~ бойкотировать; **set up a** ~ об'явить бойкот.	1.boykot, aloqani uzish; 2. boykot qilish; **put under** ~boykot qilish; **set up a** ~ boykot e'lon qilish.
BRANCH	
1. отделение, представительство; филиал; 2. ветвь (родства); 3. отрасль;„**executive** ~ исполнительная власть; **intelligence** ~ разведывательная служба; **judicial** ~ судебная власть; **legislative** ~ законодательная власть.	1. bo'lim. vakolatxona; filial; 2. shajara (qarindoshlik); 3. soha; **executive** ~ ijro hokimiyati; **intelligence** ~razvedka xizmati; **judicial** ~ sud hokimiyati; **legislative** ~ qonun chiqaruvchi hokimiyat.
BRAND	
1. товарный знак, торговая марка; фабричное клеймо; 2. ставить товарный знак, фабричное клеймо; маркировать; 3. сорт, качество.	1.tovar belgisi, savdo markasi; fabrika belgisi; 2. tovar belgisini, fabrika belgisini qo'ymoq; markalamoq; 3. nav, sifat.

BREACH	
1. нарушение (права, закона, договора); 2. нарушать (право, закон, договорные обязательства); 3. часть искового заявления, излагающая нарушение обязательства ответчиком; 4. разрыв (отношений); ~ **in anticipation** нарушение (договора) до наступления срока исполнения; ~ **of close** нарушение владения, неправомерный заход на территорию чужого владения; ~ **of confidence** нарушение оказанного доверия;	1.buzmoq, rioya qilmaslik (huquqqa, qonunga, shartnomaga); 2. buzmoq, rioya qilmaslik (huquqqa, qonunga, shartnoma shartlariga); 3. javobgarning majburiyatlarni buzganligini da'vo arizasida ilova qilmoq; 4. shartnomani bajarish muddatigacha buzish; ~ **of close** egalik qilish hududi chegarasini buzish, begona shaxsning egalik qilish hududiga noqonuniy kirishi; ~ **of confidence** bildirilgan ishonchni oqlamaslik;
~ **of contract/covenant** нарушение договора; ~ **of discipline** нарушение дисциплины; ~ **of duty** нарушение обязанности; ~ **of faith** 1. супружеская измена; 2. злоупотребление доверием; ~ **of justice** несправедливость, нарушение принципов правосудия; ~ **of law** нарушение закона; ~ **of obligation** нарушение обязательства; ~ **of prison** бегство из тюрьмы; ~ **of probation order** нарушение приказа суда о пробации; ~ **of recognizance** 1. нарушение обязательства, данного в суде; 2. нарушение поручительства; ~ **of the peace** нарушение общественного порядка; ~ **of trust** нарушение доверительным собственником своих обязанностей; ~ **of trust by officer** злоупотребление доверием, совершенное должностным лицом; **anticipatory** ~ нарушение (договора) до наступления срока исполнения; **severable** ~ частичное нарушение.	~ **of contract/ covenant** shartnoma shartlarini buzish; ~ **of discipline** intizomni buzish; ~ **of duty** majburiyatni buzish; ~ **of faith** 1. xotinning eriga nisbatan vafosizlik (xiyonat) qilishi; 2. bildirilgan ishonchni suiiste'mol qilish; ~ **of justice** – adolatsizlik, odil sud prinsiplarini buzish; ~ **of law** qonunni buzish; ~ **of obligation** majburiyat shartlarini buzish; ~ **of prison** turmadan qochish ~ **of probation order** sinov shartlari haqida sud qarorining buzilishi; ~ **of recognizance** 1. sudda berilgan majburiyat shartlarining buzilishi; 2. topshiriqni buzish; ~ **of the peace** jamoa tartibini buzish; ~ **of trust** majburiyatlarini o'zining ishonchli vakili tomonidan buzilishi; ~ **of trust by officer** mansabdor shaxs tomonidan bildirilgan ishonchni suiiste'mol qilinishi; **anticipatory** ~ ijro muddatiga qadar shartnoma shartlarini buzilishi; **severable** ~ qisman buzilish.

BREAD	
1. хлеб; 2. средства к существованию; **earn/make one's ~** зарабатывать на жизнь.	1.non; 2. tirikchilik manbai; **earn/ make one's ~**pul topmoq.
BREADTH	
об'ем, степень (защиты, прав и т. п.).	ko'lam, daraja (himoyalashda, huquqda va b.).
BREAK	
1. нарушение (прав, закона, договора, обязательств); разрыв (отношений); 2. нарушать (права, законы, обязательства); разрывать (отношения);	1. buzmoq, rioya qilmaslik (huquqqa, qonunga, shartnoma shartlariga); **buzish** (munosabatlarni);
3. разориться, обанкротиться; ~ **one's back** обанкротиться, потерпеть крах; ~ **an entail** снимать с недвижимости ограничение круга наследников и права отчуждения; ~ **off relations** разрывать отношения; ~ **the case** совещаться перед вынесением решения (о судьях); ~ **the public peace** нарушать общественный порядок; **prison ~** побег из тюрьмы; **tax ~** нарушение налогового обязательства.	2. buzmoq, rioya qilmaslik (huquqqa, qonunga, shartnomaga); buzmoq (munosabatlarni); 3. xonavayron bo'lmoq. bankrotlikka uchramoq; ~ **one's back** bankrotlikka uchramoq, halokatga uchramoq; ~ **an entail** vorislar nomzodlari miqdorini ko'chmas mulk va unga bo'lgan huquqlarini olib tashlashni bekor qilish; ~ **off relations** munosabatlarni buzmoq; ~ **the case** hukm chiqarmasdan oldin sudyalarning kengashib olishi; ~ **the public peace** jamoa tartibini buzish; **prison ~** qamoqdan qochish; **tax ~** soliq majburiyatini buzish.
BREAKAGE	
убыток, причиненный поломкой; возмещение за поломку.	inqiroz keltirgan zarar;
BREAKER	
нарушитель (закона); ~ **of the peace** нарушитель общественного порядка; **law ~** правонарушитель; **prison ~** бежавший из тюрьмы, бежавший из-под стражи.	huquqbuzar; ~ **of the peace** jamoat tartibini buzmoq; **law ~** huquqbuzar; **prison ~** qamoqdan qochgan.

BREAKING	
1. поломка, разрушение; 2. взлом; преодоление физического препятствия при незаконном вторжении в помещение; ~ **the case** совещание (судей) перед вынесением решения; **actual** ~ фактическое преодоление физического препятствия; **rule** ~ нарушение нормы, правила.	1.sinmoq, buzilmoq; 2. buzmoq; tashkiloga qarashli bino, shaxsga qarashli uyga noqonuniy kirishda jismoniy to'siqlarni engish; ~ **the case** hukm chiqarmasdan oldin sudyalarning kengashib olishi; **actual** ~jismoniy to'siqlarni haqiqatda engib o'tish; **rule** ~ me'yorlarni, tartib qoidalarni buzish.
BREAK-OUT	
1. побег (из тюрьмы);	1. (qamoqdan) qochish;
2. незаконное оставление чужого помещения с преодолением физического препятствия (со взломом).	2. jismoniy to'siqlarni sindirib noqonuniy qoldirilgan begona bino (uyni) qoldirib ketish.
BREATH	
дыхание.	nafas olmoq.
SPECIMEN	
экспертиза (дыхательная проба) на присутствие алкоголя.	alkogol mavjudligini (nafas orqali) ekspertiza qilish.
BREVE	
лат. 1. судебный приказ; предписание; 2. папское бреве (послание).	lot. 1. sud buyrug'i; buyruq; 2. papaning maktubi.
BREVET	
патент; грамота.	patent; yorliq.
BRIBE	
1. взятка, подкуп; 2. подкупить; предложить или дать взятку; ~ **an official** дать взятку должностному лицу; **get/take a** ~ получить взятку; **give a** ~ дать взятку; **giver of a** ~ взяткодатель; **pass a** ~ передать взятку (через посредника); **outright** ~ явная взятка.	1. pora; 2. pora berish; pora taklif qilish yoki berish; ~ **an official** mansabdor shaxsga pora berish; **get/ take a** ~ pora olmoq; **give a** ~ pora berish; **giver of a** ~ pora beruvchi; **pass a** ~pora bermoq (vositachi orqali); **outright** ~ ochiqdan-ochiq pora olmoq.
BRIBEGIVER, BRIBER	
взяткодатель.	pora beruvchi.

BRIBERY	
взяточничество; дача или получение взятки; **business** ~ взяточничество в сфере бизнеса; **commercial** ~ взяточничество в сфере торговли; **judicial** ~ подкуп судьи, дача взятки судье; **official** ~ дача взятки должностному лицу; **outright** ~ явное взяточничество; **passive** ~ получение взятки; **tax** ~ взяточничество в сфере налогового обложения.	poraxo'rlik; pora bermoq yoki olmoq; **business** ~ biznes sohasidagi poraxo'rlik; **commercial** -savdo sohasidagi poraxo'rlik; **judicial** ~ sudyani sotib olish, sudyaga pora berish; **official** ~mansabdor shaxsga pora berish; **outright** ~ oshkora ravishdagi poraxo'rlik; **passive** ~pora olish; **tax** ~ soliq solish sohasidagi poraxo'rlik.
BRIBETAKER	
взяткополучатель.	pora oluvchi.
BRIBETAKING	
взяточничество; получение взятки.	poraxo'rlik; pora olmoq.
BRIDEWELL	
исправительный дом; исправительная тюрьма.	axloq tuzatish muassasasi; turma.
BRIEF	
1. краткий, сжатый; 2. сводка, резюме; 3. резюмировать, сделать краткое изложение; 4. краткое письменное изложение дела; 5. поручать ведение дела (адвокату); давать инструкции (адвокату); ~ **of appellee** записка по делу, поданная ответчиком по апелляции; ~ **on appeal** амер. записка по делу, представляемая адвокатом в апелляционный суд; **court** ~ 1. амер. записка по делу, представляемая адвокатом в апелляционный суд; 2. предложение суда ответчику представить объяснения по иску; **defendant's** ~ записка по делу, поданная ответчиком; **dock** ~ бесплатная защита адвокатом по выбору неимущего подсудимого или по назначению суда;	1.qisqa, siqilgan; 2. ma'lumot, rezyume; 3. qisqa xulosa qilmoq; 4. ishni qisqacha yozma ifodalamoq; 5. ishni topshirmoq (advokatga); qo'llanma bermoq (advokatga); ~ **of appellee** appelyatsiya bo'yicha javobgar tomonidan ish yuzasidan berilgan yozma bayonot; ~ **on appeal** amer. ish yuzasidan advokat tomonidan kassatsion sudga yozma bayonot berish; **court** ~ 1. amer. ish yuzasidan advokat tomonidan kassatsion sudga yozma bayonot berish; 2. da'vo bo'yicha da'vogarga sudning ishi yuzasidan tushuntirish berishni taklif qilishi; **defendant's** ~ ish yuzasidan javobgar tomonidan berilgan yozma bayonot; **dock** ~ kam ta'minlangan shaxs yoki sud tomonidan

have plenty of ~s иметь большую практику (об адвокате); **hold a ~** вести дело в суде в качестве барристера; **take a ~** 1. принимать ведение дела в суде; 2. выступать в суде в защиту кого-либо; **trial ~** меморандум по делу (для адвоката, ведущего дело).	ko'rsatilgan shaxsni advokat tomonidan tekin himoya qilish; **have plenty of ~s** imet boy tajribaga ega bo'lmoq (advokat afaoliyati haqida); **hold a ~** sudda barrister sifatida ishni olib bormoq; **take a ~** 1. ishni sudda olib borish uchun qabul qilmoq; 2. sudda biror shaxsni himoya qilish uchun so'zlamoq; **trial ~** ish yuzasidan memorandum (ishni olib boruvchi advokat uchun).
BRIEFING	
брифинг; краткое заседание, на котором обсуждаются основные вопросы дела; инструктаж; **court ~** судебный брифинг.	brifing; ishning asosiy masalalarini muhokama qiladigan kichik majlis; qo'llanma; **court ~**sud brifingi.
BRIGAND	
разбойник, бандит, грабитель.	qaroqchi, bosqinchi, talonchi.
BRIGANDAGE	
разбой, бандитизм, грабеж.	qaroqchilik, bosqinchilik, talonchilik.
BRING	
1. приносить, доставлять, приводить, привозить; 2. вводить в действие; 3. доводить до чего-либо; влечь за собой; 4. возбуждать (дело); предъявлять (иск); **~ a case before the court** возбудить судебное дело, подать в суд; **~ an action** предъявлять иск; **~ a suit** возбудить дело, тяжбу; **~ a witness** выставить свидетеля; представить свидетеля; **~ before the bar** предавать суду; **~ charges** выдвигать обвинения; **~ evidence** предъявлять доказательства; **~ in** 1. вводить (о нормах); вносить (на рассмотрение); 2. импортировать; **~ indictment** представить обвинительный акт;	1.olib kelmoq, yetkazib bermoq, keltirmoq; 2. harakatga keltirmoq; 3. nimagadir olib kelmoq; o'ziga tortmoq; 4. qo'zg'atmoq (ishni); taqdim qilmoq (arizani);~ **a case before the court** jinoiy ish qo'zg'atish, sudga oshirmoq; ~ **an action** da'vo taqdim etmoq; ~ **a suit** – sudlashish jinoiy ish qo'zg'atish; ~ **a witness-** guvohni ko'rsatishga taklif etmoq, guvohni taqdim etmoq; ~ **before the bar-** sudga taqdim etmoq, sudga oshirmoq; ~ **charges** ayb qo'ymoq; ~ evidence dalil keltirmoq; ~ **in** 1. kiritmoq (me'yorlar haqida); ko'rib chiqishga kiritmoq; 2. import qilmoq; ~ indictment - ayblov xulosasini taqdim etmoq;

~ **in guilty** признать виновным; ~ **money into court** вносить деньги в депозит суда; ~ **to account** 1. призвать к ответу, потребовать объяснения; 2. начать расследование; ~ **to bear** оказывать давление; ~ **to justice** отдать в руки правосудия; ~ **to responsibility** привлекать к ответственности; ~ **to ruin** разорить, довести до разорения; ~ **to terms** привести к соглашению; ~ **to trial** привлекать к суду;	~ **in guilty** –aybdor deb hisoblamoq; ~ **money into court** sud depozitiga pul qo'yish; ~ **to account** 1. javobgarlikka tortmoq, tushuntirish talab qilmoq; 2. tekshirish ishlarini boshlamoq; ~ **to bear-** ta'sir o'tkazmoq; ~ **to justice** odil sud ixtiyoriga topshirmoq; ~ **to responsibility** – javobgarlikka tortmoq;
~ **up** 1. ставить на обсуждение; 2. арестовывать; 3. обвинять; привлекать к суду; ~ **within the reach** сделать доступным.	~ **to ruin** - xonavayron qilmoq; qashshoqlikka duchor qilmoq; ~ **to terms-** kelishuvga olib kelmoq; ~ **to trial** sudlanishga tortmoq; ~ **up** 1. muhokamaga qo'ymoq; 2. hibsga olmoq; 3. ayblamoq; sudlanishga tortmoq; ~ **within the reach** imkon darajasida erishiladigan.
BROADEN	
расширять (права, степень защиты).	oshirmoq (huquqlarni, himoya darajasini).
BROCAGE	
1. брокерское вознаграждение, брокерская комиссия, куртаж; 2. посредничество, маклерство.	1.brokerlik haqi; 2. vositachilik, dallolchilik, maklerlik.
BROKER	
брокер, коммерческий агент, посредник, представитель, маклер, комиссионер; ~**s board** амер. биржа; **bill** ~ вексельный брокер; **chartering** ~ фрахтовый брокер; **commission** ~ брокер-комиссионер; **commodities** ~ товарный брокер; **custom-house** ~ таможенный маклер; **discount** ~ вексельный брокер; **exchange** ~ агент по покупке и продаже иностранной валюты, биржевой маклер;	broker, savdo agenti, vositachi, vakil, makler, dallol; ~**s board** birja; **bill** ~ veksel brokeri; **chartering** ~ kemada yuk tashishdagi broker; **commission** ~ broker-dallol; **commodities** ~ tovarlar brokeri; **custom-house** ~ bojxona makleri; **discount** ~ veksel brokeri; **exchange** ~ chet el valyutasini sotib olish va sotish bo'yicha agent, birja makleri;

insurance ~ страховой брокер; **merchandise** ~ брокер по покупке и продаже товаров; **real-estate** ~ брокер по операциям с недвижимостью; **share** ~ фондовый маклер; **ship** ~ корабельный маклер, судовой брокер; **stock** ~ маклер на фондовой бирже.	**insurance** ~ sug'urta brokeri; **merchandise** ~ tovar sotib olish va sotish bo'yicha broker; **real-estate** ~ kuchmas mulk operatsiyalari bo'yicha broker; **share** ~ fond makleri; **ship** ~ kema makleri, kema brokeri; fond birjasi makleri.
BROKERAGE	
1. брокерское вознаграждение, брокерская комиссия, куртаж; 2. посредничество, маклерство.	1. brokerlik haqi; 2. vositachilik, dallolchilik.
BROKING	
брокерское дело, посредничество, маклерство.	brokerlik ishi, vositachilik, dallolchilik.
BROTHEL	
бордель, публичный дом, притон.	fohishaxona, buzuqxona.
BRUIN	
1. фальшивая монета; 2. фальшивый.	1. qalbaki tanga; 2. qalbaki, soxta.
BRUTALITY	
жестокость; зверство.	shafqatsizlik; vahshiylik, yirtqichlik.
BUDGET	
1. бюджет; финансовая смета; 2. предусматривать в бюджете; ассигновать; ~ **statement** проект бюджета; **consolidated** ~ бюджет исполнительной власти; **legislative** ~ бюджет законодательной власти.	1.byudjet; moliyaviy smeta; 2. byudjetda nazarda tutmoq; ajratmoq (pul, mablag'); ~ **statement** byudjet loyihasi; **consolidated** ~ ijro hokimiyati byudjeti; **legislative** ~ qonun chiqaruvchi hokimiyat byudjeti.
BUDGETARY	
бюджетный.	byudjetga oid, byudjetdagi.
BUDGETING	
составление бюджета.	byudjetni tashkil etish.
BUGGER	
гомосексуалист; педераст.	gomoseksual; besoqolboz.
BUGGERY	
мужеложство, содомия; противоестественные половые сношения.	bachchabozlik, buzuqilik; g'ayritabiiy jinsiy aloqa.

BUGGING	
1. тайное подслушивание, прослушивание с помощью электронных устройств; 2. электронное устройство для подслушивания.	1.yashirincha eshitish, elektron qurilmalari orqali eshitish; 2. eshitish uchun elektron qurilma.
BUILDER	
строитель; ~ **and contractor** строительный подрядчик.	quruvchi; ~ **and contractor** qurilish pudratchisi.
BUILDING	
1. строительство; 2. строение; ~ **and installation works** строительно-монтажные работы; ~ **expenses** строительные издержки.	1. qurilish; 2. imorat, bino; ~ **and installation works** qurilish-montaj ishlari; ~ **expenses** qurilish xarajatlari.
BULK	
1. об'ем, масса; 2. крупный груз; ~ **mortgage** оптовая закладная на имущество; **in** ~ оптом.	1. hajm, massa; 2. katta yuk; ~ **mortgage** mulkka bo'lgan ulgurji garov xati; **in** ~ulgurji.
BULL	
1. «бык»; биржевой спекулянт, играющий на повышение; 2. спекулировать на повышение; поднимать цены; ~ **the market** поднимать цены на бирже.	1. "buqa"; narxlar yuqorilaganda olib sotuvchi birja spekulyanti; 2. narxlar yuqorilaganda spekulyatsiya bilan shug'ullanmoq; narxlarni ko'tarish; ~ **the market** birjada narxlarni ko'tarmoq.
BULLETIN	
бюллетень; **voting** ~ избирательный бюллетень, бюллетень для голосования.	byulleten; **voting** ~saylov byulleteni.
BULLION	
слиток золота или серебра.	oltin yoki kumush yombisi.
BULLY	
1. наемный убийца; 2. преследовать; запугивать; подавлять.	1.yollanma qotil; 2. ta'qib qilmoq; qo'rqitmoq; bosmoq, yengmoq.
BUMBAILIFF	
судебный пристав, помощник судебного пристава.	sud ijrochisi, sud ijrochisi yordamchisi.

BURDEN	
1. бремя; 2. обременять; отягощать; 3. обязательство; долг; 4. обвинять; ~ **commerce** чинить затруднения торговле; ~ **of contract** обязанность исполнить договор; бремя исполнения договора; ~ **of establishing** бремя обоснования; ~ **of (producing) evidence** бремя предоставления доказательств;	1. og'ir vazifa; 2. yuk bo'lib tushmoq; og'irlashtirmoq, malollik keltirmoq; 3. majburiyat; qarz; 4. ayblamoq; ~ **commerce** savdodagi og'ir axvolni tuzatmoq;~ **of contract** shartnomani bajarish majburiyati; shartnomani bajarish tashvishi; ~ **of establishing** asoslab berish majburiyati;
~ **of proof/proving** бремя доказывания; **legal** ~ юридическое бремя; **real** ~ вещное обременение; обременение земельного участка.	~ **of (producing) evidence** dalillarni taqdim qilish majburiyati; ~ **of proof/proving** isbotlash majburiyati; **legal** ~ yuridik majburiyat;
BURDENSOME	
обременительный, тягостный.	og'ir, qiyin, mushkul.
BUREAU	
бюро, отдел, управление, комитет; **detective** ~ сыскное бюро; **narcotic** ~ амер. полицейское бюро по борьбе с наркотиками; **rackets** ~ амер. полицейское бюро по борьбе с рэкетом.	byuro, bo'lim, boshqarma, qo'mita; **detective** ~qidiruv byurosi; **narcotic** ~ narkotiklarga qarshi kurashuvchi politsiya byurosi; **rackets** ~ reketga qarshi kurashuvchi politsiya byurosi.
BURGLAR	
субъект преступления берглэри; виновный в совершении берглэри.	jinoyatchi; o'g'irlik sodir etishda ayblanuvchi.
BURGLARIOUSLY	
путем совершения берглэри.	bergleri orqali jinoyat sodir qilish.
BURGLARIZE	
совершать берглэри (ночную кражу со взломом).	o'g'irlik sodir qilish (kechqurun buzib kirib o'g'irlik qilish).

CABINET	
кабинет; кабинет министров, группа министров, возглавляющих важнейшие министерства; ~ **crisis** правительственный кризис; **inner** ~ кабинет министров в узком составе; shadow ~ «теневой кабинет».	kabinet; vazirlar mahkamasi, vazirlar guruhi, asosiy vazirliklarni boshqaruvchi; ~ **crisis** hukumat inqirozi; **inner** ~ tor doiradagi vazirlar mahkamasi; shadow ~ «yashirin mahkama».
CADASTRAL	
кадастровый.	kadastrga oid.
CADASTRE	
кадастр.	kadastr.
CADAVER	
труп.	murda.
CALAMITY	
катастрофа, бедствие.	ofat, falokat, musibat.
CALCULATE	
вычислять; рассчитывать, подсчитывать; ~**d** обдуманный, преднамеренный.	hisoblamoq, mo'ljallamoq, chamalamoq, qasddan, o'ylangan.
CALCULATINGLY	
обдуманно, преднамеренно.	o'ylangan, rejalashtirilgan.
CALCULATION	
расчет; выкладка; калькуляция.	hisob-kitob, hisoblash, hisob natija.
CALENDAR	
1. список дел (к слушанию в суде); 2. амер. повестка дня; 3. амер. составлять повестку дня; 4. регистрировать, инвентаризовать; заносить в списки; ~ **causes** список дел к слушанию в суде; ~ **of business** повестка дня; court's ~ расписание судебных заседаний.	1. ishlar ro'yxati (sudda ko'rish uchun;. 2. amer. Kun tartibi; 3. amer. kun tartibini tuzish; 4. registratsiya kilish, tekshirish; ro'yxatga kiritish; sudda ko'riladigan ishlar ro'yxati; kun tartibi; sud majlislari ro'yxati.
CALL	
1. вызов; 2. звать; вызывать: созывать; 3. объявлять; оглашать; 4. визит, посещение; 5. требование; 6. требовать;	1. chaqiruv, 2. atamoq, 3. qichqirmoq, chaqirish, 4. tashrif buyurmoq; 5. talab; 6. talab qilmoq;

7. сделка с предварительной премией; предварительная премия: опцион; 8. присвоение звания барристера; 9. межевая веха; ~ **an** election назначать выборы; ~ **as witness** вызывать в качестве свидетеля;~ **back** 1. отзывать; 2. отменять; ~ **evidence** 1 огласить список судебных дел; ~ the **plaintiff** вызывать в суд; ~ **to order** 1. призывать к порядку; 2. амер. открывать собрание; ~ **to testify** вызывать для дачи свидетельских показаний; ~ **to the bar** 1. присвоить звание барристера; принимать в адвокатуру; 2. приглашать занять место у барьера в суде; ~ **upon** предоставлять слово; obscene phone ~s хулиганские звонки по телефону; **on** ~ по первому требованию.	7. oldindan mukofotlantirilgan bitim, kelishuv 8. barrister maqomini o'zlashtirish; 9. chegara qoziqlari; ~ **an** election saylovlarni belgilash; guvoh sifatida chaqirish;~ **back** 1.chaqirib olish; 2. bekor qilish;~ **evidence** 1.sud ishlari ro'yxatini e'lon qilish;~ the **plaintiff** sudga chaqirish; ~ **to order** 1. tartibga chaqirish; 2 amer. majlisni ochish;~ **to testify** guvohlik ko'rsatmalarini berish uchun chaqirish; ~ **to the bar** 1. barrister maqomini o'zlashtirish; advokaturaga qabul qilish; 2. sudda bar'er o'rnini egallash uchun taklif qilish; ~ **upon** so'z berish; birinchi talabga binoan ~ **upon** obscene phone ~s telefon orqali bezorilik qilmoq; **on** ~birinchi talabga binoan.
CALLABLE	
могущий быть выкупленным; подлежащий выкупу.	sotib olinishi mumkin bo'lgan; sotib olishga arziydigan.
CALUMNIATOR	
клеветник.	tuhmatchi.
CALUMNY	
клевета; диффамация; ложное обвинение.	tuhmat; qoralash; yolg'on ayblov.
CAMERA	
1. кабинет судьи; 2. фотоаппарат; **in** ~ 1. в закрытом судебном заседании; 2. в секретном порядке.	1. sudya kabeniti;2. fotoapparat; 1. yopiq sud majlisida; 2. sirli tartibda.
CAMP	
лагерь (пенитенциарное учреждение); **detention** ~ лагерь для интернированных; **light-security** ~ лагерь облегченного режима; **open** ~ неохраняемый лагерь;	lager (penitentsiarmuassasi) ; **detention** ~ vaqtincha qamalganlar uchun lager; **light-security**~ umumiy tartibdagi koloniya; **open** ~ qo'riqlanmaydigan lager;

prison-industries ~ тюремно-трудовой лагерь; **strict-security** ~ лагерь строгого режима; **work** ~ исправительно-трудовой лагерь.	**prison-industries** ~ mehnat-qamoq lageri; **strict-security** ~qattiq tartibdagi lager; **work** ~ mehnat tuzatish axloq lageri.
CANCEL	
1. отменять; расторгать; вычеркивать; аннулировать; 2. погашать; ~ a **contract/treaty** расторгнуть контракт; ~ a **power of attorney** об'явить доверенность недействительной.	1.bekor qilmoq; yo'q qilmoq; kuchdan qoldirish; 2. bekor qilish; shartnomani yo'q qilish; ishonchnomani o'z kuchini yo'qotganligini e'lon qilish.
CANCELLATION	
1. аннулирование; расторжение; отмена; 2. погашение; ~ **of conviction** погашение судимости.	1. bekor qilish; yo'q qilish; rad etish; 2. bekor qilish; sudlanganlikni bekor qilish.
CANON	
1. правило; норма; закон; 2. канон; 3. папский декрет; ~**s of construction** нормы толкования; ~**s of descent/ inheritance** нормы, регулирующие порядок наследования; ~ **of law** правовая норма, правовой канон.	1. qoida; norma; qonun; 2. kanon; 3. papa dekreti; ~**s of construction** tuzilish normasi; ~**s of descent/ inheritance** meros qoidalarini tartibga solishga qaratilgan normalar; ~ **of law huquq** normalari, kanon huquqlari.
CANONS AD AUDIENDUM JUDICUM	
(лат.) судебный приказ о приведении в суд для заслушивания приговора.	lot. sud **hukmini eshittirish** uchun sudga **chaqirish to'g'risidagi** sud buyrug'i.
CANVASS	
1. вербовать сторонников перед выборами; собирать голоса перед выборами; 2. амер. подсчет голосов; 3. искать заказы.	1. **tomonlarni saylov oldidan** ovoz **berishga undamoq**; saylov oldidan **ovoz to'plamoq**; 2. amer. ovozlar hisobi; 3. buyurtmalar qidirish.
CANVASSING	
1. понуждение; домогательство; 2. агитация за кандидата (на выборах).	1.majburlash; zo'rlash; 2. nomzod uchun targ'ibot (saylovlarda).
CAPABILITY	
способность; правоспособность; **in one's individual** ~ от своего собственного имени.	layoqat; huquq layoqati; o'z shaxsi nomidan.

CAPABLE	
1. способный; 2. правоспособный, дееспособный; ~ **of mischief** способный причинить вред; **be~ of smth.** владеть чем-либо; legally ~ право- и дееспособный.	1.layoqatli; 2. huquqiy layoqat sohibi ~ **of mischief** zarar yetkazishga qodir; **be~ of smth** nimagadir egalik qilmoq; legally ~ huquq va layoqatlilik.
CAPACITY	
1. способность; 2. правоспособность; дееспособность; 3. должность; должностное положение; 4. компетенция; ~ **of corporations** правоспособность юридических лиц; ~ **to contract** способность заключать договор; ~ to marry правоспособность к вступлению в брак; ~ **to sue and be sued** способность искать и отвечать в суде, процессуальная право- и дееспособность; **active** ~ дееспособность; **earning** ~ трудоспособность; **in a representative** ~ в качестве представителя; **international legal** ~ международная правоспособность; **legal** ~ право- и дееспособность; **mental** ~ психические, умственные способности; **passive** ~ правоспособность; **sufficient mental** ~ психические (умственные) способности, достаточные для признания за лицом юридической дееспособности; **testamentary** ~ завещательная право- и дееспособность; **testimonial** ~ 1. право давать свидетельские показания в суде; 2. статус свидетеля.	1.layoqat; 2. huquq layoqat; qobiliyat; 3. martaba; amal darajasi; 4. layoqat; ~ **of corporations** yuridik shaxslarning huquq layoqati; ~ **to contract** shartnoma tuzish layoqati; ~ **to marry** nikohga kirish huquqi; **to sue and be sued** sudlash va sudlanish huquqi; protsessual huquq va layoqat; **active** ~faol layoqat; **earning** ~mehnat layoqati; **in a representative** ~vakil sifatida; **international legal** ~xalqaro huquqiy layoqat; **legal** ~huquq va layoqatlilik; **mental** ~ruhiy, aqliy layoqat; **passive** ~passiv layoqat; **sufficient mental** ~yuridik shaxs sifatida tan olinishi uchun etarli ruhiy (aqliy) layoqat; **testamentary** ~ vorislik huquqi va layoqati; **testimonial** ~ 1.sudda guvohlik ko'rsatmalarini berish huquqi; 2. guvoh maqomi.

CAPE	
судебный приказ о вызове в суд арендатора по иску арендодателя.	ijaraga beruvchining da'vosi bilan ijarada turuvchining sudga chaqirilishi to'g'risidagi sud buyrug'i.
CAPIAS	
лат. судебный приказ, приказ об аресте лица или имущества (обеспечение гражданского иска).	lot. sud buyrug'i, shaxsni qamoqqa olish to'g'risidagi buyruq (fuqarolik da'vosini qondirish uchun).
CAPIAS AD AUDIENDUM	
лат. судебный приказ о доставке осужденного в суд для об'явления ему приговора.	lot. sudlanuvchini sud hukmini e'lon qilish uchun keltirish to'g'risidagi sud buyrug'i.
CAPIAS AD RESPONDENDUM (JUDICIUM)	
лат. судебный приказ об аресте ответчика и о его доставке в суд в определенный день.	lot. javobgarni qamoqqa olish va sudga belgilangan kunda yyetkazish bo'yicha sud buyrug'i.
CAPIAS AD SATISFACIENDUM	
лат. судебный приказ об аресте и заключении в тюрьму должника по решению суда вплоть до удовлетворения заявленного против него иска.	lot. sud qaroriga ko'ra unga qarshi berilgan da'voni qondirish maqsadida javobgarni hibsga olish va qamoqda saqlash.
CAPITAL	
~ **of intent** заявление о намерениях; волеиз'явление; ~ **of intention** 1. волеиз'явление; заявление о намерениях; 2. амер. заявление иностранца в суде о намерении натурализоваться; ~ **of trust** декларация о доверительном характере собственности; ~ **of will** волеиз'явление; заявление о составлении завещания; ~ **outwards** таможенная декларация по отходу; **customs** ~ таможенная декларация; **dying** ~ заявление, сделанное перед смертью; **fill in/fill out a** ~ заполнять декларацию; **legitimacy** ~ заявление об усыновлении (удочерении) незаконнорожденного ребенка; **post-testamentary** ~ **of testator** заявление завещателя после составления завещания; **produce** ~ предъявить декларацию.	~ **of intent** maqsadlar haqida ariza; hohish-istakni bayonoti; ~ **of intention** 1.hohish-istakni bayon qilish; maqsadlar haqida ariza; 2. amer. xorijlikning sudda fuqarolikka qabul qilinish maqsadi haqida ariza; ~ **of trust** mulkning ishonchlilik xarakteri haqida deklaratsiya;~ **of will** xohish-istak bayonoti: vasiyatnoma tuzish haqida ariza; ~ **outwards** chiqindi bo'yicha bojxona deklaratsiyasi; **customs** ~bojxona deklaratsiyasi; **dying** ~o'lim oldidan qilingan ariza; **fill in/fill out a** ~ deklaratsiya to'ldirmoq; **legitimacy** ~ noqonuniy tug'ilgan bolani farzandlikka (o'g'illikka va qizlikka) olish haqida ariza; **post-testamentary** ~ **of testator** vasiyat qoldiruvchining vasiyatnomani tuzilgandan keyingi arizasi; **produce** ~ deklarasiyani taqdim qilmoq.
DECLARATIVE	
декларативный.	deklarativ; tantanali; rasmiy.
DECLARATORY	
декларативный; объяснительный; пояснительный; ~ **of the law** раз'ясняющий содержание норм права, подлежащих применению по делу.	deklaratorli; tushuntirish; tushuntirishga oid; ~ **of the law** ish bo'yicha tatbiq etishga taalluqli huquq normalari mazmunini tushuntirilishi.
DECLARE	
1. заявлять; объявлять; 2. предъявлять на таможне вещи, облагаемые пошлиной; 3. указать в таможенной декларации;	1. arz qilmoq; e'lon qilmoq; 2. bojxona vositalari, boj to'lanadigan ashyolarni taqdim qilmoq; 3. bojxona deklaratsiyasida ko'rsatmoq;

4. подавать иск, излагать основание иска; ~ **a mistrial** об'явить судебное разбирательство неправильным, неправосудным; ~ **missing** об'явить безвестно отсутствующим.	4. da'vo bermoq; da'voning asosini bayon qilmoq; ~ **a mistrial** sud muhokamasini noto'g'ri, adolatsiz deb e'lon qilmoq; ~ **missing** noma'lum sababga ko'ra qatnashmagan deb e'lon qilmoq.
DECLASSIFY	
рассекречивать.	sirni oshkor qilmoq.
DECLINE	
1. отклонять; отказывать(ся); 2. снижение; спад, сокращение; **business** ~ спад деловой активности.	1. qaytarmoq; rad etmoq; 2. tushish; pasayish, qisqarish; **business** ~ biznes ishi sur'atining pasayishi.
DECONSECRATION	
1. секуляризация; 2. лишение юридической силы; ~ **of divorce** судебное решение о расторжении брака.	1. sekulyarizatsiya (cherkov yoki monastir mulkini davlat mulkiga aylantirish); 2. yuridik kuchdan mahrum qilish; ~ **of divorce** nikohni bekor qilish to'g'risida sud qarori.
DECONTROL	
освобождать(ся) от государственного контроля.	davlat nazoratidan ozod qilmoq.
DECOY	
1. заманивать в ловушку; обманывать; 2. соблазнять, обольщать.	1. tuzoqqa tushirmoq; aldamoq; 2. vasvasa qilmoq; yo'ldan urmoq.
DECREE	
1. декрет; указ; 2. издавать декрет, издавать указ; 3. судебное решение, постановление, приказ, определение; 4. выносить судебное решение, постановление, определение; 5. издавать распоряжение, приказ; ~ **absolute** решение суда, окончательно и безусловно вступившее в силу;	1. dekret; qaror; 2. dekret chiqarmoq; qaror chiqarmoq; 3. sud qarori, farmoyishi, buyrug'i, ajrimi; 4. sud qarori, buyrug'i, ajrimi chiqarmoq; 5. farmoyishni buyruq chiqarmoq; ~ **absolute** oxirgi va so'zsiz kuchga kiradigan sud qarori; ~ **in equity** adolat huquqlari normalari asosida chiqarilgan sud qarori; adolat huquqi tizimi sud qarori;

~ **of distribution** распоряжение о вручении наследникам имущества покойного; ~ **of insolvency** постановление банкротстве; ~ **of judicial separation (of spouses)** судебный приказ о раздельном проживании (супругов); ~ **of nullity** постановление о расторжении брака; ~ **pro confesso** решение в пользу истца на основании молчаливого признания иска; **adverse** ~ решение суда в пользу противной стороны; **consent** ~ решение суда в соответствии с заключенным сторонами мировым соглашением; согласительное судебное постановление; **deficiency** ~ постановление об остатке задолженности по ипотеке; **divorce** ~ судебное решение о разводе; **foreclosure** ~ 1. приказ суда о выплате долга под страхом лишения права выкупа заложенного имущества; 2. приказ суда о продаже заложенной недвижимости.	~ **of distribution** marhum mulkini merosxo'rlarga topshirish haqida farmoyish; ~ **of insolvency** bankrotlik farmoyishi; ~ **of judicial separation (of spouses)** (er-xotinlarning) alohida yashashi to'g'risida sud qarori; ~ **of nullity** nikohni bekor qilish haqida qaror; ~ **pro confesso** da'voni sukut bilan tan olish asosida da'vogar foydasiga qaror; **adverse** ~ qarshi tomon foydasiga sud qarori; **consent** ~ tomonlarning yarashuv bitimi tuzganligi mos bo'lgan sud qarori; kelishuvli sud qarori; **deficiency** ~ ipoteka bo'yicha qarzdorlikning qoldig'i to'g'risida qaror; **divorce** ~ ajralish haqida sud qarori; **foreclosure** ~ 1. garovga kuyilgan mulkni sotib olish huquqidan mahrum bo'lish qo'rquvi ostida qarzni to'lash bo'yicha sud buyrug'i; 2. garovga qo'yilgan ko'chmas mulkni sotish haqida sud qarori.
DECRY	
1. лишать кредита; 2. обесценивать.	1. kreditdan mahrum qilmoq; 2. qadrsizlantirmoq.
DEDICATE	
1. посвящать; 2. передавать в дар, передавать в общественное пользование.	1.bag'ishlamoq; 2. tekinga bermoq, jamiyat foydalanishiga o'tkazmoq.
DEDICATION	
1. передача (имущества) в общее пользование; 2. отказ от авторских прав; отказ от патентных прав в пользу общества.	1. mulkni jamiyat foydalanishiga o'tkazish; 2. mualliflik huquqidan voz kechish; jamiyat foydasiga patent huquqidan voz kechish.

DEDUCT	
1. вычитать; сбавлять; 2. удерживать.	1. o'qib olmoq; ayrimoq; ushlab qolmoq
DEDUCTION	
1. списание; 2. вычитание; вычет; удержание; 3. скидка; уступка; **depreciation** ~ погашение износа; амортизационные отчисления; **tax** ~ удержание налога.	1.hisobdan chiqarish; 2. ajratish; chegirib qolish; ushlab qolish; 3. chegirma; yengillik; **depreciation** ~ yemirilishni qoplash; amortizatsiya chegirmasi; **tax** ~ soliq ushlab qolish.
DEED	
1. действие, деяние; поступок; 2. факт; 3. документ за печатью; ~ **in fee** документ о передаче абсолютного права собственности на недвижимость; ~ **of agency** учреждение доверительной собственности для оплаты долгов; ~ **of arrangement** соглашение с кредиторами; ~ **of assignment** акт о передаче несостоятельным должником своего имущества в пользу кредитора; ~ **of defeasance** документ, аннулирующий действие вещно-правового титула или другого документа; ~ **of distruction** акт о передаче имущества покойного; ~ **of gift** дар, дарение; ~ **of protest** заявление об опротестовании векселя; ~ **of real estate** документ о передаче права собственности на недвижимость; ~ **of release** документ об освобождении вещи от обременения; ~ **of separation** документ о раздельном жительстве супругов; ~ **of settlement** акт о распоряжения имуществом в чью-либо пользу;	1. harakat, deyanie; qilmish; 2. fakt, dalil; 3. muhr bosilgan hujjat; ~ **in fee** ko'chmas mulkka mutlaq egalik huquqini berish to'g'risida hujjat; ~ **of agency** qarzlarni to'lash uchun ishonchli mulk tashkilot; ~ **of arrangement** kiridetorlar bilan kelishuv; ~ **of assignment** qarzni to'lashga imkon(iyat)siz qarzdor mulkini kreditor foydasiga o'tkazish haqida dalolatnoma; ~ **of defeasance** ashyoviy-huquqiy maqom yoki boshqa hujjatlarning amal qilishini bekor qiluvchi hujjat; ~ **of distruction** marhum mulkini berish to'g'risida dalolatnoma; ~ **of gift** hadya, hadya qilish; ~ **of protest** vekseldan norozilik to'g'risida ariza; ~ **of real** estate ko'chmas mulkka egalik huquqini berish haqidagi hujjat; ~ **of release** og'ir kelishdan ashyolarni ozod qilish haqidagi hujjat; ~ **of separation** er-xotinlarning alohida yashash joyi haqida hujjat; ~ **of settlement** mulkni kimning foydasiga berish haqidagi dalolatnoma; ~ **of trust** mulkning ishonchli egaligini ushlab turish haqida hujjat;

~ **of trust** документ об учреждении доверительной собственности; **assignment** ~ акт передачи права, цессия;	**assignment** ~ huquqni o'tkazilishi haqidagi dalolatnoma; **defeasible** ~ kuchini yo'qotishi mumkin bo'lgan dalolatnoma;
defeasible ~ акт, который может потерять силу; **mortgage** ~ ипотечный акт, закладная; ~ **-poll** односторонний документ за печатью, одностороннее обязательство; **quitclaim** ~ акт отказа от права; **tax** ~ купчая на недвижимость при продаже за неуплату налогов; **trust** ~ акт учреждения доверительной собственности; **valid** ~ надлежаще оформленный документ за печатью.	**mortgage** ~ ipoteka, garov dalolatnomasi; ~ **-poll** muhrlangan bir tomonlama hujjat, bir tomonlama majburiyat; **quitclaim** ~ huquqdan voz kechish dalolatnomasi; **tax** ~ soliq to'lamaganlik uchun sotib olinganlik haqida ko'chmas mulk rasmiy hujjati, **trust** ~ ishonchlilik mulk egalikni tasdiqlovchi dalolatnoma; **valid** ~ tegishli tartibda rasmiylashtirilgan muhr bosilgan hujjat.
DEFACE	
1. портить, искажать; стирать; 2. делать неудобочитаемым; ~ **a document** сделать документ неудобочитаемым.	1. buzmoq, badnom qilmoq; o'chirib tashlamoq; 2. o'qib bo'lmaydigan holatga keltirmoq; ~ **a document** hujjatni o'qib bo'lmaydigan holatga keltirmoq.
DEFACEMENT	
1. порча, искажение; 2. изуродование.	1.buzilish; 2. noto'g'ri talqin qilish.
DE FACTO	
лат. 1. де-факто; фактически; на деле, в действительности; 2. фактический.	lot. 1. de-fakto; faktik; ishdagi, amaldagi; 2. haqiqiy, aniq.
DEFALCATE	
совершить растрату.	kamomad qilmoq.
DEFALCATION	
1. денежная растрата; 2. растраченная сумма; 3. зачет требований.	1. pul kamomadi; kamomat summasi; 3. hisobot talabi.
DEFALCATOR	
растратчик.	kamomad keltiruvchi.
DEFALK	
производить зачет требований.	hisobot talabini ijro qilmoq.

DEFAMATION	
диффамация (распространение позорящих кого-либо мнимых или действительных сведений); ~ **of character** дискредитация.	diffamatsiya (shaxsni badnom qiluvchi ma'lumotlarni matbuotda e'lon qilmoq; ~ **of character** diskreditatsiya-obro'ni to'kish.
DEFAMATORY	
позорящий, дискредитирующий; ~ **per quod** позорящий в свете привходящих фактических обстоятельств; ~ **per se** позорящий сам по себе, безотносительно к привходящим фактическим обстоятельствам.	uyatga qoldiruvchi, obro'ni to'kuvchi; ~ **per quod** haqiqiy holat bo'yicha badnom qilish, ~ **per se**
DEFAME	
поносить, позорить, порочить.	haqoratlamoq, izza qilmoq, sharmanda qilmoq.
DEFAULT	
1. неисправность должника; неисполнение; неплатеж; 2. не выполнять обязанность; 3. невыполнение в срок процессуальных действий; неявка в суд; 4. не явиться в суд; 5. отсутствие, недостаток; ~ **at trial** неявка в судебное заседание; **by** ~ за неявкой, в отсутствие неявившейся стороны; **claim** ~ предъявлять претензию за неисполнение договора; **in** ~ невыполнивший; ~ **on debt** неуплата долга; ~ **on interest** неуплата процентов; ~ **on obligations** невыполнение обязательств; **make** ~ 1. не исполнять (обязанность); 2. не явиться по вызову суда; **suffer a** ~ проиграть дело вследствие неявки в суд; **wilful** ~ умышленное неисполнение своих обязанностей.	1. qarzdor yaroqsizligi; bajarmaslik; to'lamaslik; 2. majburiyatni bajarmaslik; 3. protsessual harakatlarni muddatida bajarmaslik; 4. sudga kelmaslik; 5. mavjud emaslik; kamchilik; ~ **at trial** sud majlisida qatnashmaganlik;**by** ~ kelmaganlik, tomonning kelmasligi; **claim** ~shartnomani bajarmaganligi uchun e'tiroz bildirmoq; **in** ~bajarmagan holat; ~ **on debt** qarzni to'lamaslik~ **on interest** foizlarni to'lamaslik, ~ **on obligations** majburiyatlarni bajarmaslik; **make** ~ 1. bajarmaslik (majburiyat); 2. sud chaqiruvi bo'yicha kelmaslik; **suffer a** ~ sudga kelmaganlik sababli ishni yutqazish; **wilful** ~ o'z majburiyatini qasddan bajarmaslik.

DEFAULTER	
1. сторона, не выполияющая обязанностей; 2. сторона, уклоняющаяся от явки в суд; 3. растратчик.	1. majburiyatni bajarmagan tomon; 2. sudga kelishdan bo'yin tovlagan tomon; 3. kamomad keltiruvchi.
DEFEASANCE	
1. аннулирование, отмена; 2. документ, содержащий условия аннулирования другого документа или прекращения права.	1. bekor qilish; 2. boshqa hujjatni bekor qilish yoki huquqni to'xtash shartlarini ichiga olgan hujjat.
DEFEASIBLE	
могущий быть аннулированным, отмененным; теряющий силу при определенных условиях.	bekor qilinishi mumkin bo'lgan; belgilangan shartlar bo'yicha kuchini yo'qotuvchi.
DEFEAT	
1. отмена, аннулирование; 2. отменять, аннулировать; 3. прекращение; 4. прекращать; 5. предотвращать; 6. разрушать, расстраивать; 7. отвергать; 8. побеждать, наносить поражение; ~ **a motion** отклонить ходатайство; ~ **the action** представить достаточные возражения по иску; ~ **the course of justice** нарушать отправление правосудия; ~ **the law** препятствовать осуществлению закона.	1.bekor qilish; 2. bekor qilmoq; 3. to'xtashish; 4. to'xtatish; 5. bartaraf qilmoq; 6. yemirmoq, xafa qilmoq; 7. chetlatmoq; 8. g'alaba qilmoq, mag'lubiyatga uchratmoq; ~ **a motion** rasmiy iltimosnomani qaytarmoq; ~ **the action** da'vo bo'yicha yetarli darajada e'tiroz keltirmoq; ~ **the course of justice** adolatga jo'natishni buzmoq; ~ **the law** qonunni amalga oshirishga to'sqinlik qilmoq.
DEFECT	
дефект; порок; недостаток; повреждение; ~ **in process/of proceedings** процессуальное нарушение; **apparent** ~ явный, выявляемый при осмотре недостаток (вещи); **inherent** ~ присущий, внутренний порок (вещи); **latent** ~ скрытый дефект; **manufacturing** ~ производственный дефект.	nuqson; kamchilik; ~ **in process/ of proceedings** protsessual buzilish; **apparent** ~ aniq, (ashyolar) kamchiligini tekshiruvida aniqlangan; **inherent** ~(ashyoning) o'ziga xos, ichki nuqson; **latent** ~yashirin nuqson; **manufacturing** ~ ishlab chiqarishdagi kamchilik.

DEFECTIVE	
1. юридически порочный; 2. умственно недостаточный; психически неполноценный; 3. дефектный; ~ **record** несостоятельный документ.	1. yuridik nuqsonli; 2. aqliy kamchilikli; ruhiy zaif; 3. nuqsonli; ~ **record** asossiz hujjat.
DEFECTIVENESS	
дефективность; **mental** ~ умственная недостаточность.	nuqsonlilik; **mental** ~ ruhiy yetishmovchilik.
DEFENCE	
1. оборона, защита; 2. защита (на суде); аргументация ответчика; возражение по иску; возражение ответчика; 3. запрещение; 4. обстоятельство, освобождающее от ответственности; ~ **counsel** защитник; ~ **of appeal** поддержка апелляции; ~ **of inadmissibility** защита ссылкой на недопустимость доказательств; ~ **of insanity** защита ссылкой на невменяемость; ~ **of irresponsibility** защита ссылкой на отсутствие оснований ответственности; ~ **of laches** ссылка на промедление; ~ **of minority** защита ссылкой на несовершеннолетие; ~ **of mistake** защита ссылкой на ошибку не по вине субъекта; ~ **of privilege** защита ссылкой на привилегию; ~ **of property** защита имущества; ~ **of superior order** защита ссылкой на совершение действий по приказу начальника; **affirmative** ~ заявление о фактах, опровергающих иск; **civil** ~ защита по гражданскому делу; **conduct** ~ осуществлять защиту по делу; **conduct one's own** ~ отказаться от защиты адвокатом;	1. mudofaa, himoya; 2. (sudda) himoya; javobgarning haqligi; da'vo bo'yicha e'tiroz; javobgar e'tirozi; 3. taqiq(lov); 4. javobgarlikdan ozod etadigan vaziyat; ~ **counsel** himoyachi; ~ **of appeal** apilatsiyani qo'llab-quvvatlash; ~ **of inadmissibility** yo'l qo'yilmaydigan isbotlarga tayangan himoya; ~ **of insanity** aqli norasoliqka tayangan himoya;~ **of irresponsibility** javobgarlikni asoslash mavjud emasligiga tayangan himoya; ~ **of laches** sustkashlikka ishora; ~ **of minority** voyaga yetmaganlikka tayangan himoya;~ **of mistake** subyektining aybi bilan bo'lmagan xatoga tayangan himoya~ **of privilege** imtiyozga tayangan himoya; ~ **of property** mulk himoyasi; ~ **of superior order** boshliqning buyrug'i bo'yicha harakatni amalga oshirishga tayangan himoya; **affirmative** ~ da'voni rad etuvchi dalillar haqida ariza; **civil** ~ fuqarolik ishlari bo'yicha himoya; **conduct** ~ish bo'yicha himoyani amalga oshirmoq; **conduct one's own** ~ advokat himoyasidan voz kechmoq;

dilatory ~ отлагательное возражение (не по существу иска); **disclose** ~ защищаться; **establish** ~ обосновывать возражения по иску; **full** ~ полная формула возражения по иску; **good** ~ 1. достаточное, юридически обоснованное возражение; 2. основание для оправдания; **issuable/meritorious** ~ возражение по существу дела; **negative** ~ защита отрицанием факта; **objective** ~ защита ссылкой на об'ективные обстоятельства; **peremptory** ~ возражение об отсутствии у истца права на иск, возражение по существу иска; **points of** ~ письменное возражение ответчика по иску; **raise** ~ выдвигать возражение против иска; **set up a** ~ предъявлять претензию; **support** ~ **of procedural law** поддерживать защиту процессуальными аргументами; **support** ~ **of substantive law** поддерживать защиту аргументами материально-правового характера.	**confession of** ~himoyaning asoslanlanishi bo'yicha da'vogarni tan olish; **dilatory** ~(da'voning mavjud emasligi bo'yicha) kechiktirilgan e'tirozlar; **disclose** ~ himoyalanmoq; establish ~ da'vo bo'yicha e'tirozni asoslamoq; **full** ~da'vo bo'yicha e'tirozning to'liq formulasi; good ~ 1. yuridik jihatdan yetarli darajada asoslangan e'tiroz; 2. oqlanish uchun asos; **issuable/meritorious** ~ ishning mavjudligi bo'yicha e'tiroz; **negative** ~ dalillarni inkor qiladigan himoya; **objective** ~ obyektiv holatlarga tayangan himoya; **peremptory** ~ da'vogarda da'voga huquq mavjud emasligi haqida e'tiroz, da'voning mavjudligi bo'yicha e'tiroz; **points of** ~ da'vo bo'yicha javobgarning yozma e'tirozi; **raise** ~ javobgarning da'vo bo'yicha yozma e'tirozi; **raise** ~da'voga qarshi e'tiroz bildirish; **set up a** ~shikoyat qilmoq; **support** ~ **of procedural law protsessual** dalillar himoyasini qo'llab-quvvatlamoq; **support** ~ **of substantive law** moddiy-huquqiy xarakterdagi dalillar himoyasini qo'llab-quvvatlamoq.
DEFEND	
1. оборонять(ся), защищать(ся); 2. защищать на суде, выступать в качестве защитника; 3. возражать; 4. запрещать; ~ **a case** защищать себя (на суде),защищаться, оспаривать иск; ~ **an action** отвечать по иску; ~ **a suit** отвечать по иску, выступать в качестве ответчика;	1. mudofaa(lan)moq, himoya(lan) moq; 2. sudda himoya qilmoq, himoyachi sifatida qatnashmoq; 3. e'tiroz qilmoq; 4. taqiqlamoq; ~ **a case** (sudda) o'zini himoya qilmoq, da'vo uchun kurashmoq; ~ **an action** da'vo bo'yicha javob bermoq; ~ **a suit** da'vo bo'yicha javob bermoq, javobgar sifatida qatnashmoq;

~ **oneself** 1. защищать себя на суде (без помощи адвоката); 2. совершать акт самообороны.	~ **oneself** 1. (advokatning yordamisiz) sudda o'zini himoya qilmoq; 2. o'z-o'zini himoya qilish harakatini amalga oshirmoq.
DEFENDANT	
1. ответчик;обвиняемый; 2. подзащитный; ~ **in attendance** присутствующий в суде ответчик; ~ **s joined for trial** ответчики, дела которых об'единены для совместного рассмотрения в суде; ~ **in error** ответчик по апелляции; **aggrieved** ~ ответчик, законным интересам которого нанесен ущерб; **civil** ~ ответчик; **find for (against)** ~ решить в пользу (против) ответчика; **impecunious/ indigent** ~ ответчик, не имеющий средств для покрытия расходов, связанных с защитой его интересов в суде; **multiple** ~ 1. ответчик, привлеченный к ответственности по нескольким пунктам искового заявления; 2. pl соответчики; **several** ~ **s** соответчики; **unrepresented** ~ не представленный адвокатом ответчик.	1.javobgar; 2. himoya ostidagi; ~ **in attendance** sudda qatnashuvchi javobgar; ~ **s joined for trial** sudda ishlari birgalikda ko'rilishi kerak bo'lgan javobgarlar;~ **in error** apilatsiya bo'yicha javobgar; **aggrieved** ~ qonunning manfatiga zarar keltirilgan javobgar; **civil** ~javobgar; **find for (against)** ~javobgar foydasiga (zarariga) hal qilmoq; **impecunious/indigent** ~ sudda uning manfaatlarini himoya qilishga aloqador chiqimlarni qoplash uchun mablag'i bo'lmagan javobgar; **multiple** ~ 1. da'vo arizasining bir necha punktlari bo'yicha javobgarlikka tortilgan javobgar; 2. pl hamkor javobgarlar; **several** ~ **s** hamkor javobgarlar; **unrepresented** ~ javobgar ko'rsatimagan advokat.
DEFENERATION	
дача взаймы под ростовщический процент.	sudxo'rlik foiz(foydas)i ostida zayom berish.
DEFENSOR	
1. защитник; 2. ответчик; 3. попечитель; опекун; **public** ~ государственный защитник (в США, Шотландии); **public system** ~ система защиты государственным защитником (в США, Шотландии).	1. himoya(lov)chi; 2. javobgar, 3. vasiy, vasiylik qiluvchi; **public** ~ davlat himoyachisi (AQSh, Shotlandiyada); **public system** ~ davlat himoyachisi himoya tizimi (AQSh, Shotlandiyada).
DEFER	
откладывать, отсрочивать; переносить на другое время.	olib qo'ymoq, kechiktirmoq; boshqa vaqtga o'tkazmoq.

DEFERMENT	
отсрочка.	kechiktirish.
DEFERRAL	
перенесение сроков, отсрочка.	muddatlarni boshqa vaqtga o'tkazish, kechiktirish.
DEFERRED	
отсроченный, отложенный; ~ **annuity contract** соглашение об отсрочке аннуитета; ~ **claims** отсроченные требования; ~ **delivery** отсроченная поставка; ~ **futures** фьючерсные контракты с дальними сроками исполнения; ~ **interest** с отсроченными процентными выплатами.	kechiktirilgan, olib qoldiringan, ~ **annuity contract** yillik to'lovni kechiktirish haqida kelishuv; ~ **claims** ~ kechiktirilgan talab; ~ **delivery** kechiktirilgan elitma; ~ **futures** uzoq muddatga bajarish kerak bo'lgan kelgusidagi shartnomalar; ~ **interest** kechiktirilgan foizli to'lovlar.
DEFIANCE	
1. неповиновение; 2. нарушение (закона); **in ~ of** вопреки, в нарушение; ~ **of law** нарушение закона.	1. bosh tortish; 2. (qonunni) buzish; **in ~ of** (tartib) buzarlikka qaramasdan; ~ **of law** qonunni buzish.
DEFICIENCY	
дефектность, недостаточность, недостаток, отсутствие; ~ **of law** пробел в праве; **legal** ~ юридический пробел; **make up** ~ возмещать недостачу; **mental** ~ умственная недостаточность.	nuqsonlilik, etishmovchilik, kamchilik mavjud emaslik; ~ **of law** huqudagi bo'shliq; **legal** ~ yuridik bo'shliq; **make up** ~ kamchilikni qoplash; mental ~ aqli zaiflik.
DEFICIENT	
дефектный, неполный, недостаточный, лишенный чего-либо.	nuqsonli, to'liq emas, etishmagan, nimadandir mahrum qilingan.
DEFICIT	
дефицит; нехватка; превышение расходов над доходами.	defitsit, yetishmaslik; etishmovchilik; chiqimlarning kirimlardan oshib ketishi.

DEFILE	
растлевать; лишить девственности; ~ **the marriage bed** осквернить супружеское ложе (нарушить супружескую верность).	qiz bolani nomusiga tajovuz qilmoq; qiz bolani nomusidan judo qilmoq; ~ **the marriage bed** er-xotin yolg'onini tahqirlamoq (er-xotin ishonchini buzmoq)
DEFINE	
определять; формулировать; давать определение, ~ **broadly/loosely** давать широкое определение; ~ **judicially** давать судебное определение; ~ **legally** давать ческое определение; ~ **narrowly/ strictly** давать узкое определение.	aniqlamoq; shakllantirmoq; aniqlik kiritmoq; ~ **broadly/loosely** keng aniqlik kiritmoq; ~ **judicially** sud aniqligini kiritmoq; ~ **legally** qonuniy aniqlik kiritmoq; ~ **narrowly/strictly** tor aniqlik kiritmoq.
DEFINITION	
дефиниция, определение, описание.	definitsiya, aniqlik, ta'rif.
DEFINITIVE	
окончательный.	so'nggi.
DEFLATION	
дефляция, снижение цен.	deflyatsiya, narhning pasayishi.
DEFLOWER	
лишить девственности, растлевать.	qiz bolani nomusidan judo qilmoq; qiz bolani nomusga tajovuz qilmoq.
DEFORCE	
1. неправомерно не допускать вступление во владение недвижимостью; неправомерно удерживать чужую недвижимость; 2. лишать собственности.	1. ko'chmas mulk egaligiga kirishishga noqonuniy yo'l qo'ymaslik; o'zganing ko'chmas mulkini noqonuniy ushlab turish; 2. mulk egaligidan mahrum qilmoq.
DEFORCEMENT	
1. неправомерное недопущение вступления во владение; 2. неправомерное удержание чужой собственности; присвоение.	1. egalikka kirishishga noqonuniy yo'l qo'ymaslik; 2. o'zganing mulkini noqonuniy ushlab turish; g'ayriqonuniy o'zlashtirish.
DEFORCEOR, DEFORCIANT	
владелец неправомерно удерживаемого недвижимого имущества.	ko'chmas mulkni noqonuniy ushlab turgan egasi.

DEFORMITY	
изьян; уродство.	nuqson; majruhlik.
DEFRAUD	
1. обманывать; обманом лишать; мошенничать; 2. обманные действия.	1. aldamoq; aldov bilan mahrum qilmoq; firibgarlik qilmoq; 2. aldovli harakat.
DEFRAUDATION	
обман; мошенничество; лишение (чего-либо) путем обмана.	aldov; firibgarlik; (nimadandir) aldov yo'li bilan mahrum qilmoq.
DEFRAY	
оплачивать издержки; ~ **expenses** покрывать расходы.	xarajatlarni to'lamoq; ~ **expenses** chiqimlarni yashirmoq
DEFRAYAL	
оплата издержек, платеж.	xarajatlar to'lovi, to'lov.
DEFUNCT	
1. мертвый, покойный, умерший; 2. пресекшийся (о роде).	1. o'lgan, marhum, vafot etgan; 2. (avlod haqida) yo'qolmoq.
DEFY	
нарушать; пренебрегать; не повиноваться; ~ **the law** нарушать закон.	buzmoq; bo'yin tovlamoq; bo'ysunmaslik; ~ **the law** qonunni buzmoq.
DEGENERATION	
вырождение, дегенерация.	buzilish, yomon tomonga o'zgarish, degeneratsiya.
DEGRADATION	
деградация; понижение, ухудшение.	degradatsiya; pasayfish, og'irlashish.
DEGRADE	
унижать.	tahqirlamoq.
DEGRADING	
унижение, оскорбление.	tahqirlash, haqoratlash.
DEGREE	
1. степень; 2. колено (родства); ~ **of consanguinity** степень кровного родства; ~ **of jurisdiction** судебная инстанция; ~ **s of kin** степени родства; ~ **of proof** степень доказательства; **civil** ~ колено, степень родства;	1. daraja; 2. avlod (qarindoshlik) ~ **of consanguinity** qon qarindoshlik darajasi; ~ **of jurisdiction** sud instantsiyasi; ~ **s of kin** qarindoshlik darajasi; ~ **of proof** isbotlar darajasi; **civil** ~ qarindoshlik, avlod darajasi;

forbidden / prohibited ~ запрещенная степень родства/ свойства, исключающая возможность вступления в брак.	**forbidden/prohibited** ~ nikohga kirish imkoniyatini yo'qqa chiqaradigan taqiqlangan **qarindoshlik/kelib** chiqish darajasi.
DELATE	
1. обвинять, доносить на кого-либо; 2. доводить до сведения.	1.kimgadir etkazmoq, ayblamoq; 2. ma'lumot etkazib turmoq.
DELATION	
обвинение, донос.	ayblov, qoralov.
DELAY	
1. задерживать; 2. задержка; просрочка; 3. препятствие; 4. медлить; 5. промедление; 6. откладывать; 7. отлагательство; ~ **an action** отложить процесс; ~ **in appeal** просрочка подачи апелляционной жалобы; ~ **in filing** просрочка подачи (заявления, ходатайства); ~ **in trial** 1. задержка судебного разбирательства; 2. отсрочка судебного разбирательства; **grant a** ~ предоставлять отсрочку; **without** ~ безотлагательно; **without undue** ~ без излишнего промедления.	1. to'xtatmoq; 2. to'xtatish; muddatini kechiktirish; 3. orqaga sudramoq; 4. sustlatish; 5. chetga qo'ymoq; 6. koldirmoq; 7. keyinga qoldirish; ~ **an action** harakatni kechiktirmoq;~ **in appeal** appelyatsiya shikoyati berishni kechiktirish; ~ **in filing** (ariza, rasmiy iltimos) berishni kechiktirish; ~ **in trial** 1.sud muxokamasini to'xtatish; 2. sud muxokamasi cho'zilishi; **grant a** ~ muddatni cho'zib berish; **without** ~ kechiktirmasdan; **without** ~ xech kanday sekinlashtirmasdan.
DELEGABLE	
имебщий возможность быть делегированным; подлежащий делегированию; ~ **duty** обязанности, которые могут быть делегированы другому лицу.	vakil qilib yuborish imkoniyatiga ega; vakil qilib yuborishga oid; ~ **duty** boshqa shaxsga vakil qilib yuborish mumkin bo'lgan majburiyatlar.
DELEGACY	
1. делегация; 2. делегирование; 3. полномочия делегата.	1.delegatsiya, vakillik; 2. vakil qilib yuborish; 3. vakil huquqi.
DELEGATE	
1. делегировать; уполномочивать; передавать полномочия; 2. делегат, представитель; депутат; 3. переводить (долг).	1. vakil qilib yubormoq; vakil qilmoq; vakolatni bermoq; 2. vakil, delegat; deputat; 3. (qarzni) o'tkazmoq.

DELEGATION	
1. передача, делегирование (полномочий); 2. перевод долга; экспромиссия; 3. депутация, делегация; посылка делегации; ~ **of powers** передача полномочий.	1.(vakolatni) o'tkazish, berish; 2. (qarzni) o'tkazish; ekspromissiya; 3. deputatsiya, delegatsiya; delegatsiya jo'natmalari; ~ **of powers** vakolatni berish.
DELETE	
вычеркивать, уничтожать; исключать (в документе).	o'chirmoq, yo'q qilmoq; chiqarib tashlamoq (hujjatda).
DELIBERATE	
1. обсуждать, совещаться; 2. обдумывать; 3. обдуманный; преднамеренный, предумышленный; 3. осмотрительный; осторожный.	1. muhokama qilmoq, maslahatlashmoq, o'ylab ko'rmoq; 2. chuqur o'ylab ko'rilgan; o'ylab qo'yilgan, ataylab o'ylab ko'rilgan; 3. ko'rib chiqilgan; extiyotkor.
DELIBERATELY	
умышленно; обдуманно; преднамеренно.	qasddan qilingan; o'ylab topilgan; ataylab qilingan.
DELIBERATION	
1. обсуждение, совещание; 2. обдумывание; 3. осторожность, осмотрительность; **jury's** ~ совещание присяжных; **recess/retire for** ~ удаляться на совещание.	1.muhokama, maslahat, majlis; 2. chuqur o'ylab ko'rish; 3. ehtiyotkorlik; **jury's** ~ sud maslaxatchilari maslahati; **recess/retire for** ~ maslahatga chiqib ketmoq.
DELICT	
деликт; нарушение закона; правонарушение.	delikt, qonun buzarlik; huquq buzarlik.
DELICTUAL	
деликтный; нарушающий право.	delikt; huquq buzadigan.
DELIMIT	
производить делимитацию, определять границы.	delimitatsiyani ishlab chiqarish, chegarani aniqlamoq.
DELIMITATION	
делимитация.	delimitatsiya.
DELINQUENCY	
1. невыполнение обязанностей; нарушение (договора, закона); правонарушение;	majburiyatlarni bajarmaslik, (shartnoma, qonunni) buzish; huquqbuzarlik.

2. задолженность; просрочка; ~ **charges** штраф за просроченную выплату задолженности; **contractual** ~ нарушение договорных обязательств; **counsel's** ~ нарушение адвокатом судебной процедуры; **international** ~ международные правонарушения; **tax** ~ задолженность по выплате налогов.	1. qarzdorlik; muddatni o'tkazib yuborish; ~ **charges** qarzdorlik muddatining o'tib ketganligi uchun jarima; **contractual** ~shartnoma majburiyatlarini buzish; **counsel's** ~advokatning sud protsedurasini buzishi; **international** ~xalqaro huquqbuzarlik; **tax** ~ soliq to'lovi bo'yicha qarzdorlik.
DELINQUENT	
1. правонарушитель; 2. не выполнивший обязанностей/ принятых на себя обязательств; **official** ~ лицо, не выполняющее своих должностных обязанностей; **tax** ~ должник по налоговому обложению.	1.huquq buzar; 2. majburiyatlarni/ o'ziga olgan majburiyatlarni bajarmagan; **official** ~ o'zining xizmat majburiyatlarni bajarmaydigan shaxs; **tax** ~ soliq solish bo'yicha qarzdor.
DELIVER	
1. доставлять, поставлять; 2. передавать; традировать, формально вручать; 3. официально передавать; вводить во владение; 4. подавать (документ); 5. выносить (решение); ~ **a judgement** вынести судебное решение; ~ **by hand against acknowledgement** сдавать лично под расписку.	1. etkazib bermoq, olib borib bermoq; 2. topshirmoq; tantali, rasmiy ravishda topshirmoq; 3. rasmiy ravishda bermoq; egalikka kiritmoq; 4. (hujjat) bermoq; 5. (qaror) chiqarmoq; ~ **a judgement** sud qarori chiqarmoq; ~ **by hand** against **acknowledgement** shaxsan tilxat asosida topshirmoq.
DELIVERANCE	
1. формально выраженное мнение; 2. вердикт присяжных.	1.rasmiy bildirilgan fikr; 2. sud maslahatchilari hukmi.
DELIVERIES	
поставки; **credit** ~ поставки в кредит; **delay** ~ затягивать сроки поставок.	etkazmalar; **credit** ~ kredit qo'yilmalari; **delay** ~ etkazmalar muddatini cho'zmoq.
DELIVERY	
1. доставка; поставка; сдача (товара); 2. формальное вручение; 3. вынесение (решения);	1. etkazma; (tovar/molni) topshirish; 2. rasmiy ravishda topshirish; 3. (qaror) chiqarish;

4. ввод во владение; передача; **short** ~ недопоставка; ~ **in escrow** условное формальное вручение (депонирование у третьем лица впредь до выполнения определенного условия); **absolute** ~ **of deed** окончательная передача лицу, к которому переходит право собственности, документа о правовом титуле на имущество; **terms of** ~ условия поставки; **time of** ~ время, срок поставки; **write of second** ~ постановление суда о возвращении владельцу незаконно конфискованного имущества.	4. egalikka kiritish; topshirish; **short** ~ etkazib bermaslik; ~ **in escrow** shartli rasmiy topshirish (belgilangan shartni bajarishga qadar uchinchi shaxsga (qimmatbaho qog'ozlarni saqlashga) topshirib qo'yish; **absolute** ~ **of deed** mulkka bo'lgan huquqiy maqom haqidagi hujjatda mulk egalik huquqi o'tadigan shaxsga mulkni oxirgi topshirish; **terms of** ~ shartli topshirish; **time of** ~ topshirish vaqti, muddati; **write of second** ~ noqonuniy musodara qilingan mulkni egasiga kaytarib berilish to'g'risida sud farmoyishi.
DEMAND	
1. требование; 2. заявка, иск, правопритязание; 3. требовать; ~ **for relief** требование судебной защиты; иск; ~ **in reconvention** встречное требование; **after** ~ по требованию; **civil** ~ гражданское правопритязание; **cross** ~ перекрестный иск; **hold a** ~ **against smb.** предъявлять кому-либо претензию; **liquidated** ~ иск на твердую сумму; **opposite** ~ встречное требование; **unliquidated** ~ иск на неустановленную сумму.	1.talab; 2. talabnoma, da'vo, huquqni da'vo qilish; 3. talab qilmoq; ~ **for relief** sud himoyasi talabi; da'vo; ~ in reconvention qarshi talab; **after** ~talab bo'yicha; **civil** ~fuqarolik huquqini da'vo qilish; **cross** ~ikki tomonlama da'vo; **hold a** ~ **against smb.** biror kishiga shikoyat bildirish; **liquidated** ~qat'iy summaga da'vo; **opposite** ~ karshi talab; **unliquidated** ~ aniqlanmagan summaga da'vo.
DEMANDANT	
истец.	da'vogar.
DEMESNE	
1. обладание; владение недвижимостью; 2. земельные владения; 3. участок, прилегающий к дому; ~ **as of fee** собственность на материальную вещь; **ancient** ~ родовое имение.	1. egalik; ko'chmas mulkka egalik qilish; 2. er egaligi; 3. uyga qarashli er maydoni; ~ **as of fee** moddiy ashyolar bo'lgan egalik; **ancient** ~ avloddan-avlodga o'tib kelayolgan mol-mulk.

DEMISE	
1. аренда; 2. сдавать в аренду; 3. передача по наследству; 4. передавать по наследству; 5. смерть, кончина.	1. ijara; 2. ijaraga bermoq; 3. meros qilish bo'yicha o'tkazish; 4. meros qilib bermoq; 5. o'lim, vafot etish.
DEMIT	
уходить в отставку; отказываться от должности.	istefoga chiqmoq, lavozimdan voz kechmoq.
DEMOLISH	
разрушать; сносить; уничтожать.	buzmoq; buzib tashlamoq, yo'q qilmoq.
DEMONSTRATION	
демонстрация; **illegitimate** ~ незаконная демонстрация; **legitimate** ~ законная демонстрация.	namoish; **illegitimate** ~ noqonuniy namoish; **legitimate** ~ qonuniy namoish.
DEMOLITION	
разрушение; снос; уничтожение.	buzish; buzib tashlash; yo'q qilish.
DEMONSTRATIVE BEQUEST	
завещательный отказ средств, которые должны выплачиваться из конкретного фонда.	aniq jamg'armadan to'lanishi kerak bo'lgan vasiyat vositalaridan voz kechish.
DEMOTE	
понижать в должности, понижать в ранге.	mansabdan tushirmoq, rangadan tushirmoq.
DEMOTION	
понижение в должности, понижение в ранге.	mansabdan tushirish, rangadan tushirish.
DEMUR	
1. заявлять процессуальный отвод; 2. подавать правовое возражение против иска, направленное на прекращение дела.	1. protsessual qaytarishni arz qilmoq; 2. ishni to'xtatishga qaratilgan da'voga qarshi huquqiy e'tiroz bildirmoq.
DEMURRABLE	
позволяющий заявить процессуальный отвод.	protsessual qaytarishga ruxsat etadigan arz qilmoq.
DEMURRANT	
сторона, заявляющая процессуальный отвод.	protsessual qaytarishni arz qiluvchi tomon.

DEMURRER	
процессуальный отвод; ~ **to evidence** отвод свидетелей (в гражданском процессе); ~ **to interrogatory** возражение свидетеля против поставленного вопроса как не относящегося к делу; **general** ~ правовое возражение по существу иска, направленное на прекращение дела; **speaking** ~ возражение по вопросу права со ссылкой на новые обстоятельства; **special** ~ формально-правовой отвод иска; правовое возражение по вопросу формы, направленное на прекращение дела.	protsessual qaytarish; ~ **to evidence** (fuqarolik protsessida) guvohlarni rad qilish; ~ **to interrogatory** ishga taalluqli bo'lmagan savolga karshi guvohning e'tirozi; **general** ~ishni tugatilishiga qaratilgan da'voning mavjudligi bo'yicha huquqiy e'tiroz; **speaking** ~yangi vaziyatga tayanadigan huquq savoliga e'tiroz; **special** ~ da'vodan rasmiy-huquqiy rad etish; ishni to'xtatishga qaratilgan savol shakli bo'yicha huquqiy e'tiroz.
DENATIONALIZATION	
1. лишение гражданства; утрата гражданства; 2. денационализация.	1. fuqarolikdan mahrum qilish; fuqarolikni yo'qotish; 2. denatsionalizatsiya - milliy xususiyatlarni yo'qotish.
DENATIONALIZE	
1. лишать гражданства; утрачивать гражданство; 2. денационализировать.	1. fuqarolikdan mahrum qilmoq; fuqarolikni yo'qotmoq; 2. denatsionalizatsiya - milliy xususiyatlarni yo'qotmoq.
DENATURALIZATION	
лишение гражданства; денатурализация.	fuqarolikdan mahrum qilish; denatsionalizatsiya - milliy xususiyatlarni yo'qotish.
DENATURALIZE	
лишать гражданства, денатурализовать.	fuqarolikdan mahrum qilmoq; denatsionalizatsiya - milliy xususiyatlarni yo'qotmoq.
DENIABLE	
спорный.	tortishuvli.
DENIAL	
1. отказ; отклонение; 2. отрицание; опровержение; возражение;	1.voz kechish, rad qilish; qaytarish; 2. inkor qilish; raddiya; e'tiroz;

~ **of justice** отказ в правосудии; ~ **of public rights** умаление публичных прав; ~ **of right** отказ в праве; умаление права; ~ **of tariff concessions** отказ в предоставлении тарифных уступок; **conjunctive** ~ отрицание совокупности фактов; **general** ~ отрицание основания иска; **specific** ~ отрицание конкретного факта, приведенного в исковом заявлении.	~ of justice adolatdan voz kechish; ~ **of public rights** ommaviy huquqni erga urish; insonparvarlik huquqini kamsitish;~ **of right** huquqni rad qilish; huquqni kamsitish; ~ **of tariff concessions** ta'rif yengilliklarini ko'rsatishni rad qilish; **conjunctive** ~ dalillarni hammasini inkor qilish; **general** ~ da'vo asosini inkor qilish;**specific** ~da'vo arizasida keltirilgan aniq faktni inkor qilish.
DENIGRATION	
1. клевета; 2. диффамация.	1.tuxmat; 2. diffamatsiya (kimsani sharmanda, badnom qiladigan ma'lumotlarni matbuotda e'lon qilish).
DENIZATION	
натурализация, предоставление прав гражданства.	naturalizatsiya (boshqa davlat fuqaroligiga o'tish), tug'ilish bo'yicha fuqarolik huquqlarini berish.
DENIZE	
натурализовать, предоставлять права гражданства.	boshqa davlat fuqaroligiga o'tmoq, tug'ilish bo'yicha fuqarolik huquqlarini bermoq.
DENIZEN	
натурализованный иностранец.	tug'ilish bo'yicha fuqarolik berilgan chetellik
DENOMINATION	
1. деноминация; название; ценность; достоинство; 2. вероисповедание; ~ **of applicant** наименование заявителя.	1. denominatsiya (pul qiymatini o'zgartirish); nom; qadr-qimmat; g'urur; 2. dinga ishonish; ~ **of applicant** arzchining nomi.
DENOUNCE	
1. обвинять; обличать; осуждать; 2. денонсировать; расторгать; ~ **a treaty** денонсировать договор.	1. ayblamoq; oshkor qilmoq; muhokama qilmoq; 2. bekor deb e'lon qilmoq; bekor qilmoq; ~ **a treaty** shartnomani bekor qilmoq.
DENUNCIATION	
1. обличение, обвинение; осуждение; 2. донос;	1. qoralamoq, ayblamoq; ayblash; 2. yashirin berilgan xabar;

3. денонсация, денонсирование, расторжение; **unilateral** ~ односторонняя денонсация.	3. bekor deb e'lon qilmoq, bekor deb e'lon qilish; **unilateral** ~ bir tomonlama bekor qilish.
DENUNCIATOR	
1. обвинитель, обличитель; 2. доносчик, денунциатор.	
DENY	
1. отказывать; не допускать; отклонять; 2. отрицать; ~ **a motion/ request** отказывать в ходатайстве; ~ **bail** отказать в передаче на поруки; ~ **rehearing** отказать в повторном слушании дела.	1.rad qilmoq; ruxsat bermaslik; qoldirmoq; 2. inkor qilmoq; ~ **a motion/request** rasmiy iltimos(noma) ni rad qilmoq; ~ **bail** ko'lga berishdan voz kechmoq;~ **rehearing** ishni qayta ko'rishni rad qilish.
DEPARTMENT	
1. отдел; 2. департамент; ведомство; 3. амер. министерство; ~ **of Agriculture** министерство сельского хозяйства (в США); ~ **of Commerce** министерство торговли (в США); ~ **of Health, Education and Welfare** министерство здравоохранения, образования и социального обеспечения (в США); ~ **of Justice** министерство юстиции (в США); ~ **of Labor** министерство труда (в США); ~ **of State** государственный департамент (министерство иностранных дел в США); ~ **of the Air Force** министерство военно-воздушных сил (в США); ~ **of the Army** военное министерство (в США); ~ **of the Interior** министерство внутренних дел (в США); ~ **of the Navy** министерство военно-морского флота (в США); **executing** ~ исполнительная власть; **judicial** ~ **(of government)** судебная власть; **legislative** ~ **(of government)** законодательная власть.	1. bo'lim, bo'linma; 2. departament; idora; amer. vazirlik; ~ **of Agriculture** qishloq xo'jalgi vazirligi (AQShda); ~ **of commerce amer.** savdo vazirligi (AQShda); ~ **of Health, Education and Welfare** sog'liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy ta'minot vazirligi (AQShda); ~ **of Justice** adliya vazirligi (AQShda); ~ **of Labor** mehnat vazirligi (AQShda); ~ **of State** davlat departamenti (tashqi ishlar vazirligi AQShda); ~ **of the Air Force** harbiy-havo kuchlari vazirligi (AQShda); ~ **of the Army** xarbiy vazirlik (AQShda); ~ **of the Interior** ichki ishlar vazirligi (AQShda); ~ **of the Navy** harbiy-dengiz flot vazirligi (AQShda); **executing** ~ ijro hokimiyati; **judicial** ~ **(of government)** sud hokimiyati; **legislative** ~ **(of government)** qonun chiqaruvchi hokimiyat.

DEPARTMENTAL	
ведомственный.	biror idoraga (korxonaga) oid.
DEPEND	
1. зависеть; 2. находиться на иждивении; 3. находиться на рассмотрении суда, парламента.	1. bog'liq bo'lmoq; 2. qaramog'ida bo'lmoq; sud, parlament muhokamasida bo'lmoq.
DEPENDABLE	
надежный; заслуживающий доверия.	umid qiladigan; ishonchga xizmat qiladigan.
DEPENDENCE	
1. зависимость; подчиненное положение; 2. нахождение на иждивении; 3. нахождение на рассмотрении суда, парламента.	1. qaram, tobe; bo'ysunish holati; 2. qaromog'ida bo'lish; 3. sud, parlament muhokamasida bo'lgan. ishi ko'rilishida qatnashish.
DEPENDENCY	
зависимая территория.	tobe xudud.
DEPENDENT	
1. зависимый; подчиненный, подвластный; 2. иждивенец; 3. вассал; **personal** ~ находящийся на иждивении у данного лица.	1. qaram, tobe; bo'ysunuvchi, vasallik ostidagi; 2. boqimanda; 3. vassal; **personal** ~ ma'lum bir kishining qaramog'ida bo'lgan.
DEPENDING	
находящийся в производстве, находящийся на рассмотрении, еще не решенный.	ishlab chiqishda bo'lgan, muhokamada bo'lgan, hali hal qilinmagan.
DEPONENT	
свидетель, дающий письменные показания под присягой; лицо, дающее аффидевит.	qasamyod ostida yozma guvohlik beruvchi guvoh; affidevit beruvchi shaxs.
DEPORT	
высылать, насильственно переселять; депортировать.	chiqarib yubormoq, majburan qayta jo'natmoq; deport qilmoq.
DEPORTATION	
высылка, депортация; насильственное переселение.	chiqarib yuborish, deportatsiya; majburan qayta jo'natish.
DEPORTEE	
депортированный; высланный, сосланный.	deport qilingan; chiqarib yuborilgan, surgun qilingan.

DEPOSE	
1. давать письменные показания под присягой; 2. низложить, свергнуть, сместить (с должности).	1. qasamyod ostida yozma guvohlik bermoq; 2. erga urmoq, yiqitmoq (lavozimdan) olmoq.
DEPOSIT	
1. поклажа, депозит; хранение; 2. вносить в депозит; депонировать; 3. сдача на хранение; 4. сдавать на хранение; 5. задаток, обеспечение; 6. давать задаток, представлять обеспечение; 7. вклад, депозит (в банк); 8. вносить вклад; ~ **at short notice** краткосрочный вклад; ~ **company** компания, принимающая на хранение ценные вещи; ~ **contract** депозитное соглашение, ~ **for hire** возмездное зависимое держание; ~ **insurance** страхование банковских вкладов; **bank** ~ банковский вклад, депозит; **demand** ~ бессрочный вклад; **equitable** ~ отдача документов на хранение кредиторов в обеспечение уплаты долга; **fixed** ~ срочный вклад; **general** ~ хранение-заем, иррегулярная поклажа; **naked** ~ безвозмездное зависимое держание; поклажа; **savings** ~ сберегательный вклад; **security** ~ гарантийный (залоговый) депозит; .	1. yuk, bagaj, depozit; saqlash; 2. depozitga (olib) ko'ymoq, saqlash uchun topshirmoq; 3. saqlashga topshirish; 4. saqlashga topshirmoq; 5. garov puli, ta'minot; 6. garov puli bermoq; ta'minot bermoq; 7. (bankdagi) omonat, depozit; 8. omonat ko'ymoq; **at short notice** qisqa muddatli omonat; ~ **company** qimmatbaxo buyumlarni saqlashga kabul qilinadigan kompaniya; ~ **contract** dipozit bitimi ~ **for hire** g'arazli tobe ushlab turish; ~ **insurance** bank sug'urta omonatlari; **bank** ~ bank omonati, dipoziti; **demand** ~ muddatsiz omonat; **equitable** ~ qarzni to'lashni ta'minlashda kreditorlarga hujjatlarni saqlashga berish; **fixed** ~ muddatli omonat; **general** ~ nomuntazam yuk, zayom saqlash; **naked** ~ g'arazli tobe ushlab turish; yuk; **savings** ~ jamg'arma omonati; **savings** ~ kafolatlangan (garovli) depozit;
sight ~ бессрочный вклад; **special** ~ поклажа, хранение; **specific** ~ целевой депозит, целевой вклад; **time** ~ срочный вклад	**sight** ~ muddatsiz omonat; special ~ yuk, saqlash; **specific** ~ maqsadli depozit, maqsadli omonat; **time** ~ muddatli omonat.
DEPOSITARY	
депозитарий; хранитель; ~ **for hire** возмездный хранитель; **authorized** ~ управомоченный депозитарий.	depozit saqlovchi; saqlovchi; ~ **for hire** qaytarib beradigan saqlovchi; **authorized** ~ huquqqa asoslangan depozit saqlovchi.

DEPOSITION	
1. письменные показания под присягой; снятие показания под присягой; 2. низложение, свержение; смещение (с должности); 3. взнос, вклад (банк); 4. показание/заявление, приобщеннное к материалам дела; ~ **of testimony** приобщение свидетельских показаний к делу.	1. qasamyod ostida yozma ko'rsatma; qasamyod ostida ko'rsatmani qaytarib olish; 2. ag'darib tashlash, tushurish; (lavozimdan) olish; 3. badal, omonat (bank); 4. ish materiallariga qo'shilgan ariza/ko'rsatma; ~ **of testimony** guvohlik ko'rsatmalarini ishga ko'shish.
DEPOSITOR	
депонент; вкладчик; поклажедатель; лицо, отдающее вещь на хранение.	deponent; omonatchi, yuk qo'yuvchi; narsani saqlashga beruvchi shaxs.
DEPOSITORY	
1. банк-депозитарий; 2. склад, хранилище.	bank-depozit saqlovchi; 2. ombor(xona), saqlash joyi.
DEPOT	
1. склад; база; 2. запасной; **supply** ~ торговая база; **wholesale** ~ оптовая база.	1. ombor(xona); baza; 2. zahira; **supply** ~savdo bazasi; **wholesale** ~ ulgurji baza.
DEPRAVE	
развращать, растлевать.	ahloqsizlikka o'rgatmoq; ma'naviy jihatdan buzmoq.
DEPRECIATE	
обесценивать(ся), падать в цене.	qadrsizlamoq, narxni tushirmoq.
DEPRECIATION	
1. обесценивание; 2. амортизация; 3. моральный износ; ~ **charges** амортизационные отчисления;	1. narxlash; 2. amortizatsiya; 3. ruxiy xo'rlash; ~ **charges** amortizatsiya xarajatlari;
~ **through inflation** обесценение в результате инфляции.	~ **through inflation** inflatsiya natijasida qadrsizlanish.
DEPRESSION	
депрессия; кризис; спад деловой активности.	tushkunlik; inqroz; ish sur'atining pasayishi.
DEPRIVATION	
лишение; ~ **of citizenship** лишение гражданства; ~ **of civil rights** лишение гражданских прав, поражение в правах;	mahrum qilish; ~ **of citizenship** fuqarolikdan mahrum qilish; ~ **of civil rights** fuqarolik huquqidan mahrum qilish, huquqlarga zarar yetkazish;

~ **of consortium** лишение супружеской общности жизни, склонение к оставлению супруга; ~ **of necessities** лишение необходимых средств к существованию; ~ **of property** лишение имущества; ~ **of rights** лишение прав; правопоражение, поражение в правах.	~ **of consortium** er-xotinlik hayoti umumuylik huquqidan mahrum qilish, xotinini qoldirishga o'tish; ~ **of necessities** yashash uchun kerakli vositalardan mahrum qilish; ~ **of property** mol-mulkdan mahrum qilish; ~ **of rights** huquqdan mahrum qilish, huquqlarga zarar yetkazish.
DEPRIVE	
1. лишать; 2. отрешать от должности.	1. mahrum qilmoq; 2. lavozimdan bo'shatmoq.
DEPUTE	
1. посылать, делегировать; 2. передавать (полномочия).	1.yubormoq; vakil jo'natmoq; 2. o'tkazmoq (vakolat).
DEPUTY	
1. депутат; делегат; представитель; 2. заместитель; помощник; ~ **judge** помощник судьи; **general** ~ представитель с неограниченными полномочиями; **special** ~ представитель с ограниченными полномочиями; **by** ~ через представителя.	1. deputat, delegat; vakil; 2. o'rinbosar, yordamchi; ~ **judge** sudya yordamchisi; **general** ~cheklanmagan vakolatli vakil; **special** ~cheklangan vakolatli vakil; **by** ~vakil orqali.
DERECOGNITION	
отмена дипломатического признания.	diplomatik tan olishni bekor qilish.
DEREGULATION	
отмена государственного регулирования;	davlat boshqaruvini bekor qilish;
ослабление правительственного контроля относительно свободного рынка и конкуренции.	erkin bozor va raqobatga nisbatan davlat nazoratining kuchsizlanishi.
DERELICT	
1. бесхозяйный; брошенный; покинутый; 2. брошенное имущество; 3. нарушающий (обязанность).	1.xo'jayinsiz; tashlandiq; tashlab ketilgan; 2. tashlandiq mulk; 3. (majburiyatni) buzuvchi.

DERELICTION	
1. дереликция; оставление; 2. упущение; нарушение (обязанности); ~ **of duty** неисполнение обязанности; халатность; ~ **right** производное право; ~ **work** производная работа, деятельность (в законе об авторском праве); **administrative** ~ бездействие власти; **grievous** ~ **of duty** грубая халатность.	1.dereliktsiya; qarovsiz qoldirish; 2. xato; (majburiyatlarni) buzish; ~ **of duty** majburiyatlarni bajarmaslik; sovuqqonlik; ~ **right** yasama huquq; ~ **work** yasama ish, faoliyat (mualliflik huquqi haqidagi qonunda); **administrative** ~ hokimiyatning ishlamasligi; **grievous** ~ **of duty** qo'pol sovuqqonlik
DEROGATE	
1. умалять; ущемлять (права); 2. частично отменять (закон).	1. kamaytirmoq; (huquqni) cheklamoq; 2. qisman bekor qilmoq (qonun).
DEROGATION	
1. умаление; ущемление (прав); 2. частичная отмена (закона).	1.kamaytirish; (huquqni) cheklash; 2. qisman bekor qilish (qonun).
DEROGATORY	
умаляющий (права).	huquqni kamaytiruvchi.
DESCEND	
1. переходить, передаваться по наследству; 2. происходить.	1. meros qilib o'tkazmoq, o'tmoq; 2. mansub bo'lmoq.
DESCENDANT	
потомок; наследник; **collateral** ~ потомок по боковой линии; **direct/ lineal** ~ потомок по прямой линии.	avlod; merosxo'r; **collerial** ~ yonbosh shajara bo'yicha avlod; **direct/lineal** ~ to'g'ri shajara bo'yicha avlod.
DESCENDIBLE	
наследуемый; могущий перейти по наследству.	merosxo'r bo'ladigan; meros bo'yicha o'tishi mumkin.
DESCENT	
1. переход по наследству, наследование; 2. происхождение; **canons of** ~ нормы, регулирующие порядок наследования; **ollateral** ~ наследование по боковой линии, происхождение/потомство по боковой линии;	1. meros, meros qilish bo'yicha o'tish; 2. kelib chiqish; **canons of** ~ meros tizimini tartibga soluvchi normalar; **collateral** ~yonbosh shajara, avlod/ kelib chiqish bo'yicha vorislik;

DETAINMENT	
задержание.	ushlab qolish.
DETECT	
разыскивать, раскрывать; находить, обнаружить (виновного).	qidirmoq, ochmoq; (aybdorni) topmoq, topmoq.
DETECTIVE	
детектив, сыщик; ~ **agency** частное детективное агентство; **private** ~ частный детектив.	detektiv, izquvar; ~ **agency** xususiy detektiv agentligi; private ~ **xususiy** detektiv.
DETENTION	
1. задержка; 2. компенсация за задержку судна сверх срока, сверхконтрсталийные деньги; 3. задержание, арест, заключение под стражу.	1. to'xtatib turish; 2. kemani muddatidan ko'p ushlab turganlik uchun kompensatsiya, ushlab turish uchun pul; 3. ushlash, hibs, kamoqda saqlash.
DETERIORATION	
порча, ухудшение состояния; износ.	buzilish, holatning yomonlashuvi, eskirish.
DETERMINATION	
1. определение; установление; подсчет; 2. решение, разрешение (спора); 3. прекращение;	1. aniqlash; o'rnatish; hisoblash, 2. (tortishuv) qarori, hal etilishi; 3. to'xtatish;
~ **of adverse claim** определение суда по требованию третьего лица в отношении имущества, на которое наложен арест/обращается взыскание; ~ **of foreign law** установление по делу наличия и смысла норм иностранного права; ~ **of indigency** установление состояния неплатежеспособности:. ~ **of proceeding(s)** прекращение производства по делу; **final** ~ решение, не подлежащее обжалованию.	**of adverse claim** hibsga olingan/ undirishga aylantirilgan mulk munosabatida uchinchi shaxsning talabi bo'yicha sud ajrimi; ~ **of foreign law** ishga nisbatan xorijiy huquq normalarining mavjudligi va mazmunini belgilash; ~ **of indigency** to'lovga imkon(iyat)sizlik holatini aniqlash; ~ **of proceeding(s)** ish bo'yicha ko'rishni to'xtatish; **final** ~ shikoyat o'rinsiz bo'lgan qaror.
DETERMINE	
1. определять; устанавливать; 2. решать; разрешать (спор); 3. прекращать(ся), кончать(ся), истекать.	1.aniqlamoq; o'rnatmoq; 2. (tortishuvni) hal qilmoq, echmoq; 3. to'xtatmoq, tamomlamoq, tugatmoq.

DETINUE	
1. противоправное удержание чужого движимого имущества; 2. иск о возвращении удерживаемой движимой вещи, иск из противоправного удержания вещи.	1. begonaning ko'char mulkini qonunga zid ushlab turish; 2. ushlab turilgan ko'char ashyolarni qaytarish to'g'risida da'vo, ashyolarni qonunga zid ushlab turishdan da'vo.
DETRACTION	
клевета.	tuhmat.
DETRACTOR	
клеветник.	tuhmatchi.
DETRIMENT	
1. ущерб, вред; 2. причинять ущерб.	1. ziyon, zarar; 2. zarar keltirmoq.
DEVALUATION	
девальвация, обесценение; понижение курса валюты.	devalvatsiya, qadrsizlanish; valyuta kursining pasayishi.
DEVASTATE	
расхищать наследственное имущество.	meros mulkini talon-taroj qilmoq.
DEVASTATION	
1. разорение; 2. растрата имущества умершего (душеприказчиками или администраторами).	1. vayron bo'lish; 2. marhumning mol mulki kamomadi (vasiy yoki mamuriyat tomonidan qilingan)
DEVASTAVIT	
1. жалоба на душеприказчика или администратора наследства о расточении им имущества; 2. расточение имущества душеприказчиком или администратором наследства.	1.vasiyga va mamuriatga merosni talon taroj qilgani uchun shikoyat. 2. merosni vasiy yoki mamuriat tomonidan sovirilishi.
DEVEST	
лишать (права собственности, полномочий).	(egalik huquqi, vakolatidan) mahrum qilmoq.
DEVIATION	
отклонение; отклонение судна от прямого пути следования; ~ **doctrine** положений в завещании/ фонде, допускающее отклонение.	og'ish, burilish; kemani to'g'ri yo'ldan og'ishi. ~ **doctrine** vasiyatnoma/jamg'armadagi yo'l qo'yiladigan og'ish holati.

DEVICE	
1. прибор; устройство; механизм; 2. эмблема, символ, девиз; **advertising** ~ рекламный девиз/лозунг (как предмет правовой охраны в качестве товарного знака); **alarm** ~ устройство для дачи сигнала тревоги; **listening** ~ устройство для подслушивания.	1. asbob; qurilma, moslama; mexanizm; 2. emblema, ramz, deviz; **advertising** ~ reklama devizi, louzungi (mol/tovar belgisi sifatida huquqiy himoya predmetidek); **alarm** ~ trevoga signali beruvchi qurilma; **listening** ~ eshitish uchun moslama.
DEVISABLE	
передаваемым по наследству; могущий быть завещанным.	meros bo'lib o'tadigan; vasiyat qilinishi mumkin bo'lgan.
DEVISE	
1. завещать недвижимость; 2. завещательный отказ недвижимости; 3. завещанная недвижимость; 4. изобретать; 5. изобретение;	1.ko'chmas mulkni vasiyat qilmoq; 2. ko'chmas mulk vorislikdan voz kechish; 3. vasiyat qilingan ko'chmas mulk; 4. ixtiro qilmoq; 5. ixtiro;
contingent/executory ~ завещательный отказ недвижимости под отлагательным условием; **general** ~ завещательный отказ всей недвижимости; **lapsed** ~ завещание, потерявшее силу (вследствие смерти наследника); **residuary** ~ завещательный отказ недвижимости, остающейся после покрытия обязательств и выполнения других завещательных отказов; **specific** ~ завещательный отказ конкретно поименованной части недвижимости.	**contingent/executory** ~kechiktirilgan shartlar ostida ko'chmas mulk vasiyati bo'yicha voz kechish; **general** ~ barcha ko'chmas mulk vasiyati bo'yicha voz kechish; **lapsed** ~ kuchini yo'qotgan vasiyatnoma (merosxo'r o'limi oqibatida); **residuary** ~majburiyatni koplangandan va boshqa vorislikdan voz kechishlari bajarilgandan keyin qolgan ko'chmas mulk vorisligidan voz kechish; **specific** ~ ko'chmas mulkning aniq nomlangan qismi vasiyati bo'yicha voz kechish.
DEVISEE	
наследник недвижимости по завещанию; **residuary** ~ наследник (по завещанию) очищенного от долгов и завещательных отказов имущества.	vasiyat bo'yicha ko'chmas mulk merosxo'ri; **residuary** ~ qarzlar va vorisliklardan voz kechishdan holi bo'lgan (vasiyatnoma bo'yicha) merosxo'r.

DEVISOR	
завещатель недвижимости.	ko'chmas mulkni vasiyat qiluvchi.
DEVOLUTION	
1. переход/передача права, обязанности, правового титула, должности; 2. передача вопросов на рассмотрение назначенных парламентом и ответственных перед ним органов.	1. huquq, majburiyat, huquqiy maqom, lavozimni o'tishi/o'tkazish; 2. parlament tomonidan tayinlangan va ular oldida ma'sul bo'lgan organlarga masalalarni muhokama qilishga o'tkazish.
DEVOLVE	
1. передавать; 2. переходить; ~ **along with** следовать за кем-либо (о праве, обязанности и т. д.); ~ **on** переходить к другому лицу (о праве, обязанности и т. д.).	1. o'tkazmoq; 2. o'tmoq; ~ **along with** kimningdir izidan tushmoq (huquq, majburiyat va b. haqida); ~ **on** boshqa shaxsga o'tmoq (huquq, majburiyat va b. haqida).
DICKER	
1. мелкая сделка; обмен; 2. заключить мелкую сделку.	1.kichik kelishuv; ayriboshlash; 2. kichkina kelishuvni tuzmoq.
DICTATE	
1. диктовать; предписывать; 2. диктат, навязанный договор.	1. buyruq qilmoq; farmoyish bermoq; 2. amr, majburiy shartnoma.
DICTATION	
1. предписание; 2. диктат.	1. farmoyish; 2. amr.
DICTORES	
арбитры, третейские судьи.	arbitorlar, hakamlar.
DICTUM	
мнение судьи, не носящее нормоустановительного характера; высказывание судьи, не являющееся решением по существу рассматриваемого дела; попутное высказывание судьи, не ставшее основанием резолютивной части решения.	norma o'rnatmaydigan xarakterdagi sudyalar fikri; qarorning ko'rilayotgan ishning mavjud emasligi bo'yicha sudyalar mulohazasi; qarorning rezolyutiv qismiga asos bo'lmaydigan sudyalar mulohazasi.
DIE	
умереть, скончаться; ~ **intestate** умереть, не оставив завещания; ~ **seized** умереть, оставив имущество под арестом;	o'lmoq, vafot etmoq; ~ **intestate** vasiyatnoma qoldirmasdan o'lmoq; ~ **seized** mulkini hibsda qoldirib o'lmoq;

~ **testate** умереть, оставив завещание; ~ **without issue** умереть, не оставив потомства.	~ **testate** vasiyatnoma qoldirib o'lmoq; ~ **without** issue avlod qoldirmay o'lmoq.
DIES	
лат. день; ~ **juridicus** присутственный день в суде; ~ **non juridicus** неприсутственный день в суде.	lot. kun; ~ **juridicus** sudda ishtirok etgan kun; ~ **non juridicus** sudda ishtirok etmagan kun.
DIET	
1. законодательное собрание, парламент (не английский); 2. международная конференция.	1.qonunchilik yig'ilishi, parlament (Angliyadan tashqari); 2. xalqaro konfrentsiya.
DIFFERENCE	
расхождение; разногласие; спор; **arrange a** ~ уладить разногласие; **decide/settle the** ~ урегулировать разногласие, разрешать спор; **legal** ~ правовой спор; **state** ~ международный спор.	farq; ziddiyat; tortishuv; **arrange a** ~ ziddiyat yo'q qilmoq; **decide/ settle the** ~ ziddiyatni tartibga solmoq, tortishuvni hal qilmoq; **legal** ~ huquqiy tortishuv; **state** ~ xalqaro tortishuv.
DIFFICULTY 1.	
трудность; помеха; затруднение; 2. разногласие.	1.qiyinchilik; to'sqinlik; mashaqqat; 2. ziddiyat.
DIGAMA, DIGAMY	
второй брак.	ikkinchi nikoh.
DIGAMIST	
лицо, вторично вступившее в брак.	ikkinchi marta nikohdan o'tuvchi shaxs.
DIGEST	
сборник; свод; частная кодификация права.	to'plam; majmua; huquqning xususiy kodifikatsiyasi.
DIGRESS	
отклоняться (от существа дела).	(ish mohiyatidan)og'moq.
DIGRESSION	
отклонение (от существа дела).	(ish mohiyatidan)og'ish.
DIJUDICATION	
судебное решение; судебное определение.	sud qarori, sud ajrimi.

DILAPIDATION	
1. порча имущества нанимателем; 2. невыполнение обязанности произвести ремонт.	1.ijaraga oluvchi tomonidan mulkka zarar yetkazish; 2. ta'mirlashni olib borish majburiyatini bajarilmasligi.
DILIGENCE	
старательность, заботливость; прилежность; **due** ~ должная заботливость; **necessary** ~ необходимое внимание; **ordinary** ~ обычная заботливость.	tirishqoqlik, g'amxo'rlik; g'ayratchan; **due** ~ kerakli g'amxo'rlik; **necessary** ~ kerakli e'tibor; **ordinary** ~ oddiy g'amxo'rlik.
DIMINUTION	
1. уменьшение, сокращение; 2. неполнота документа.	1.kamaytirmoq, qisqartirmoq; 2. hujjatning to'lik emasligi.
DIMISSION	
увольнение.	bo'shatish.
DIPLOMA	
1. официальный документ; 2. диплом; свидетельство.	1. rasmiy hujjat; 2. diplom, guvohnoma.
DIPLOMACY	
дипломатия.	diplomatiya.
DIPLOMAT	
дипломат.	diplomat.
DIPLOMATIC	
1. дипломатический; 2. текстуальный, буквальный; ~ **immunity** дипломатический иммунитет.	1. diplomatik; 2. matnga oid; ~ **immunity** diplomatik daxlsizlik huquqi.
DIPSOMANIA	
алкоголизм; запои.	alkogolizm; surunkali alkagol ichish.
DIPSOMATIC	
алкоголик; пьяница.	alkogolik; ichuvchi.
DIRECT	
1. прямой, непосредственный; 2. указывать; направлять; адресовать; 3. руководить, управлять; давать инструкции; ~ **injury** прямой ущерб; ~ **loss** прямой убыток; **the judge ~ ed the verdict for the defendant** судья решил дело в пользу ответчика.	1. to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita; 2. ko'rsatmoq; yo'naltirmoq; yo'llamoq; 3. rahbarlik qilmoq, boshqarmoq, ko'rsatma bermoq; ~ **injury** to'g'ridan-to'g'ri yetkazilgan shikast;~ **loss** to'g'ridan-to'g'ri yetkazilgan zarar; **the judge ~ ed the verdict for the defendant** sudya ishni javobgar foydasiga hal qildi.

DIRECTION	
1. руководство, управление; 2. дирекция, правление; 3. указание; инструкция; 4. напутствие присяжным; ~ **in case of need** указание третьего лица на случай опротестования векселя.	1.rahbariyat; boshqarma; 2. direktsiya, boshqaruv; 3. ko'rsatma, yo'riqnoma; 4. sud maslahatchilariga xayrixoxlik; ~ **in case of** need vekselni protest qilish holatida uchinchi shaxs ko'rsatmasi.
DIRECTIVE	
1. направляющий; директивный; 2. директива.	1.yo'naltiruvchi; direktiv; 2. direktiva, yo'l-yo'riq, ko'rsatma, dastur.
DIRECTOR	
1. руководитель; директор; 2. член правления.	1. rahbar; direktor; 2. boshqaruv a'zosi.
DIRECTORY	
1. справочник; 2. дирекция; 3. содержащий указания, инструктивный.	1.ma'lumotnoma; 2. direksiya; 3. yo'riqnoma, ko'rsatmani ichiga olgan.
DIRIMENT	
делающий недействительным; аннулирующий; ~ **impediments** абсолютное препятствие браку.	haqiqiy emas deb topadigan, bekor qiladigan; ~ **impediments** nikohga mutlaq qarshilik ko'rsatish.
DISABILITY	
1. недееспособность; неправоспособность; ограничение право- и/или дееспособности; 2. ограничение в правах; поражение в правах; 3. нетрудоспособность; ~ **insurance** страхование по нетрудоспособности; ~ **of judge** 1. судейская недееспособность; 2. лишение права быть судьей; ~ **pension** пенсия по инвалидности; **mental** ~ психическая неполноценность; недееспособность и / или неправоспособность в силу психического заболевания; **partial** ~ частичная недееспособность;	1. yuridik layoqatsizlik; huquqiy layoqatsizlik; huquq va/yoki yuridik layoqatning cheklanganligi; 2. huquqlar cheklovi; huquqlardan mahrum qilish; 3. mehnatga layoqatsizlik; ~ **insurance** mehnatga layoqatsizlik bo'yicha sug'urta; ~ **of judge** 1. sudyaning yuridik layoqatsizligi; 2. sudya bo'lish huquqidan mahrum qilish; ~ **pension** nogironlik bo'yicha pensiya; nogironlik nafaqasi **mental** ~ ruhiy yetukmaslik, ruhiy kasallik kuchida huquqiy va yuridik layoqatsizlik; **partial** ~ qisman huquqiy layoqatsizlik;

temporary ~ временная недееспособность; **total** ~ полная недееспособность.	**temporary** ~ vaqtinchalik yuridik layoqatsizlik; **total** ~ to'liq yuridik layoqatsizlik.
DISABLE	
1. делать недееспособным / неправоспособным; ограничивать право- и/или дееспособность; ограничивать в правах; поражать в правах; 2. делать нетрудоспособным; 3. лишать юридической силы.	1. huquqiy/ yuridik layoqatsiz qilmoq; huquq va/yoki yuridik layoqatni cheklamoq; huquqlarini cheklamoq; huquqlardan mahrum qilmoq; 2. mehnatga layoqatsiz qilmoq; 3. yuridik kuchdan mahrum qilmoq.
DISABLED	
1. неправоспособный; лишенный дееспособности; 2. искалеченный.	1. huquqiy layoqatsiz; yuridik layoqatdan mahrum qilingan; 2. buzilgan.
DISABLEMENT	
1. ограничение, поражение в правах; 2. утрата трудоспособности.	1. huquqlardan mahrum qilish, cheklash; 2. mehnatga layoqatini yo'qotish.
DISADVANTAGE	
1. невыгодное положение; невыгодное условие; 2. убыток, ущерб.	1. noqulay holat; noqulay shart; 2. zarar, ziyon.
DISAFFECTION	
1. беспристрастность; 2. недовольство; 3. нелояльность.	1. beg'arazlik; 2. norozilik; 3. sotqinlik.
DISAFFIRM	
отменять; брать обратно согласие; отказывать в подтверждении.	bekor qilmoq; rozilikni qaytarib olmoq, tasdiqlashdan bosh tortmoq.
DISAFFIRMANCE	
отмена; взятие обратно согласия; отказ в подтверждении.	bekor qilish, rozilikni qaytarib olish, tasdiqlashdan bosh tortish.
DISAGREE	
не соглашаться; расходиться (во мнении); противоречить.	rozi bo'lmaslik; (fikr bo'yicha) bo'linmoq; qarshilik qilmoq.
DISAGREEMENT	
расхождение (во мнениях); разногласие, несогласие.	(fikr bo'yicha) bo'linish; ziddiyat, norozilik.

DISALLOW	
1. отказывать; отклонять, отвергать; 2. запрещать; не разрешать; ~ **a claim** отказать в иске, отклонить иск.	1.rad qilmoq; qaytarmoq, chetlatmoq; 2. taqiqlamoq, ruxsat bermaslik; ~ **a claim** da'voni rad qilmoq.
DISALLOWANCE	
Отказ, отклонение, запрещение.	rad qilish, qaytarish, ta'qiqlash.
DISANNUL	
аннулировать.	bekor qilmoq.
DISAPPROPRIATE	
лишать прав собственности.	mulk egaligi huquqidan mahrum qilmoq.
DISAPPROPRIATION	
лишение права собственности.	mulk huquqidan mahrum qilish.
DISAPPROVAL	
неодобрение.	salbiy baho berish.
DISAPPROVE	
не одобрять, отвергать.	salbiy baho bermoq; chetlatmoq.
DISARM	
разоружать(ся).	qurolsizlan(tir)moq.
DISARMAMENT	
разоружение.	qurolsizlanish.
DISASTER	
бедствие; несчастье; катастрофа; **natural** ~ стихийное бедствие.	ofat; baxtsizlik; falokat; **natural** ~ tabiiy ofat.
DISAVOW	
1. отрицать; 2. отрекаться; снимать с себя ответственность; 3. дезавуировать.	1.inkor qilmoq; 2. yuz o'girmoq; o'zidan javobgarlikni soqit qilmoq; 3. norozilik bildirmoq.
DISAVOWAL	
1. отрицание; 2. отречение, отказ; 3. дезавуирование.	1.inkor qilish; 2. yuz o'girish; rad etish; 3. norozilik bildirish.
DISBAR	
лишать звания адвоката, лишать права адвокатской практики.	advokat unvonidan mahrum qilmoq, advokatlik amaliyoti huquqidan mahrum qilmoq.

DISBARMENT	
лишение звания адвоката, лишение права адвокатской практики; исключение барристера из корпорации.	advokat unvonidan mahrum qilish, advokatlik amaliyoti huquqidan mahrum qilinishi, korporatsiyadan barriystrni chiqarib yuborish.
DISBURSEMENT	
1. выплата; 2. расходы, издержки.	1.to'lov; 2. chiqimlar, xarajatlar.
DISCARD	
1. увольнять; отказывать от места; 2. списывать (за негодностью).	1.bo'shatmoq; joyni rad qilmoq; 2. (yaroqsizligi uchun) hisobdan chiqarmoq.
DISCHARGE	
1. исполнять; отправлять; 2. исполнение; отправление (обязанностей и т. п.); 3. уплата; погашение (долга); 4. уплатить, погасить (долг); 5. освобождать; 6. освобождение (от ответственности);	1.bajarmoq; jo'natmoq; 2. bajarish; jo'natish (majburiyat va sh. k.); 3. to'lov; (qarzni) uzish; 4. to'lamoq(qarzni) uzmoq; 5. bo'shatmoq; 6. (javobgarlikdan) ozod qilish;
7. реабилитация, оправдание; 8. прекращение (обязательств); 9. прекращать (обязательства); 10. восстанавливать в правах; 11. увольнять; 12. увольнение (из армии, с должности); ~ **a bankrupt** 1. погасить задолженность банкрота; 2. восстановить банкрота в правах; ~ **of contract** исполнение договора; прекращение обязательств по договору; ~ **of debt** погашение долга; ~ **of debtor** освобождение должника от долга; **lawful** ~ восстановление несостоятельного должника в правах; **order of** ~ судебный приказ о восстановлении несостоятельного должника в правах.	7. obro'sini tiklash, oqlash; 8. (majburiyatlarni) to'xtatish; 9. (majburiyatlarni) to'xtatmoq; 10. huquqlarni tiklamoq; 11. bo'shatmoq; 12. (armiyadan, lavozimdan) bo'shatish; ~ **a bankrupt** 1.bankrot qarzdorlikdan uzmoq; 2. bankrotning huquqlarini tiklamoq; ~ **of contract** shartnomani bajarish; shartnoma bo'yicha majburiyatlarini to'xtatish; ~ ~ **of contract** qarzni uzmoq; ~ **of debtor** qarzdorni qarzdan ozod qilish; **lawful** ~ imkon(iyat). siz qarzdorning huquqlarini tiklash; **order of** ~ imkon(iyat)siz qarzdorning huquqlarini tiklash haqida sud buyrug'i.

DISCHARGEE	
уволенный из армии, демобилизованный.	armiyadan bo'shatilgan, dembl qilingan.
DISCIPLINARY	
1. дисциплинарный, исправительный; 2. дисциплинирующий.	1. intizomli, ahlok tuzatish; 2. intizomga asoslangan.
DISCIPLINE	
1. порядок, дисциплина; 2. дисциплинировать; 3. дисциплинарное взыскание; наказание за нарушение дисциплины.	1. tartib, intizom; 2. intizom o'rnatmoq; 3. intizomiy jazo; intizom buzganlik uchun jazo.
DISCLAIM	
1. отказываться (от права); 2. отрицать; не признавать (иск, право); 3. не претендовать.	1. (huquqdan) voz kechmoq; 2. inkor qilmoq, (da'vo, huquqni) tan olmaslik; 3. da'vogarlik qilmaslik.
DISCLAIMER	
1. отказ (от права); 2. отрицание; непризнание (иска, права).	1.(huquqni) rad qilish; 2. inkor qilish, (da'vo, huquqni) tan olmaslik.
DISCLOSE	
раскрывать; объявлять; разглашать (какую-либо информацию); обнаруживать.	ochmoq; e'lon qilmoq; (biror ma'lumotni) ovoza qilmoq; topmoq.
DISCLOSURE	
раскрытие, обнаружение, сообщение.	ochish, ko'rsatish, xabar.
DISCOMMON	
лишать права пользования общинной землей.	jamoaga qarashli erdan foydalanish huquqidan mahrum qilmoq.
DISCONTINUE	
1. прекращать (дейс,вие); 2. прекращать (дело) производством.	1.(harakatni) to'xtatmoq; 2. (ish) yuritishni to'xtatmoq.
DISCONTINUANCE	
1. прекращение; 2. дисконтинуитет, процедура оставления дела без движения.	1. to'xtatish; 2. da'vom ettimaslik, muddatga etmaslik, ishni harakatsiz qoldirilish jarayoni.

DISCOUNT	
1. дисконт, учет векселя; 2. учитывать, дисконтировать (вексель); 3. учетный процент; 4. скидка; 5. не принимать в расчет; 6. зачет требований.	1. diskont (muddati to'lmagan vekselni hisobga olish va undan ushlab qolinadigan haq), vekselni hisobga olish; 2. (vekselni) hisobga olish, diskont qilish; 3. hisobga olingan foiz; 4. chegirma; 5. hisobga olmaslik; 6. talabga binoan.
DISCOVER	
обнаруживать, раскрывать; узнавать.	topmoq, ochmoq; ko'rib tanimoq.
DISCOVERT	
1. незамужняя; 2. овдовевшая.	1.turmushga chiqmagan; 2. beva bo'lib qolgan.
DISCOVERTURE	
незамужнее состояние, вдовство (о женщине).	turmushga chiqmaganlik holati, bevalik (ayollar haqida).
DISCOVERY	
1. открытие; 2. раскрытие; представление сведений/ документов; 3. обнаружение (нового факта и т. п.);	1. ochish; 2. fosh etish; ma'lumotlar/ hujjatlar taqdim qilish; 3. topish (yangi dalil va b.);
~ **of documents** 1. истребование документов; 2. представление документов; **pretrial** ~ представление списка свидетелей стороны до суда.	~ **of documents** 1. hujjatlarni talab qilmoq; 2. hujjatlarni taqdim qilmoq; **pretrial** ~ sudgacha tomon guvohlarining ro'yhatini taqdim qilish.
DISCREDIT	
1. дискредитировать; опорочивать; 2. дискредитация; 3. подвергать сомнению, не доверять; 4. лишать полномочий; 5. лишать кредита; ~ **witness** об'явить свидетеля не заслуживающим доверия.	1. obro'sini to'kmoq; yomonlamoq; 2. obro'sizlantirish; 3. shubha uyg'otmoq, ishonmaslik; 4. vakolatdan mahrum qilmoq; 5. kreditdan mahrum qilmoq; ~ **witness** guvohni ishonchga noloyiq deb e'lon qilmoq.
DISCREPANCY	
различие; расхождение; несогласие; противоречие.	farq; to'g'ri kelmaslik; kelishmovchilik, qarama-qarshilik.

DISCRETION	
1. усмотрение, свобода действий; дискреционное право; 2. благоразумие; осторожность; **acquire** ~ стать дееспособным; **at the** ~ по усмотрению; **judicial** ~ усмотрение суда, судебное усмотрение; **legal** ~ усмотрение суда, судебное усмотрение.	1. ixtiyor, harakat erkinligi, diskoetsion huquq, aql bilan ish qilish; ehtiyotkorlik; **acquire** ~ yuridik layoqatli bo'lish; **at the** ~ ixtiyorga binoan; **judicial** ~ sud ixtiyori; sud fikri; **legal** ~ sud ixtiyori; sud fikri.
DISCRIMINATE	
1. отличать; различать; 2. дискриминировать, проводить дискриминацию; 3. относиться по-разному.	1.farq qilmoq, ajratmoq; 2. tahqirlamoq, kamsitmoq; 3. har tomonlama yondashmoq.
DISCRIMINATION	
1. умение разбираться; 2. различный подход, неодинаковое отношение; дискриминация; **employment** ~ дискриминация при найме на работу; **gender** ~ дискриминация по полу; **racial** ~ расовая дискриминация.	1. aniqlash qobiliyati; 2. har xil yondashuv, bir xil bo'lmagan munosabat, kamsitish;**employment**~ ishga yollashda kamsitish; **gender** ~jinsi bo'yicha kamsitish; **racial** ~irqiy kamsitish.
DISCUSSION	
1. обсуждение; переговоры; дискуссия, прения; 2. погашение долга из имущества основного должника в первую очередь (как условие наступления ответственности поручателя); 3. очередность ответственности наследников в погашении долгов умершего (сначала наследник по закону, затем наследник по завещанию).	1. muhokama; muzokaralar; bag's, munozara; 2. birinchi navbatda qarzdorning asosiy mulkidan qarzni uzish (kafil javbgarligini boshlash shartidek); 3. marhum qarzlarini to'lashdagi merosxo'rlarning javobgarlik navbati (dastlab qonun bo'yicha, keyin vasiyatnoma bo'yicha merosxo'r).
DISEASE	
болезнь, заболевание; ~ **of mind** психическое заболевание; **industrial / occupational** ~ профессиональное заболевание; **mental** ~ психическое заболевание.	kasallik, bemorlik; ~ **of mind** ruhiy kasallik; **industrial / occupational** ~ kasb kasalligi; mental ~ ruhiy kasallik.

DISENDOW	
лишать пожертвований, завещательных сумм.	vasiylik, hayr-ehson summalaridan mahrum qilish.
DISENGAGED	
1. не связанный обязательствами: 2. неприсоединившийся (о государстве).	1.majburiyatga aloqasi bo'lmagan; 2. qo'shilmagan (davlat haqida)
DISENGAGEMENT	
1. освобождение; 2. взаимный вывод вооруженных сил государств (из определенной зоны); 3. расторжение помолвки.	1. ozod qilish; 2. davlatlarning (aniq hududdan) qurolli kuchlarining o'zaro chiqarish; 3. unashtirishni bekor qilish.
DISENTAIL	
1. отмена ограничительного условия наследования имущества; 2. отменять ограничительное условие наследования имущества.	1.vorislik mulkining chegaralangan shartini bekor qilish; 2. vorislik mulkining chegaralangan shartini bekor qilmoq.
DISENTAILMENT	
отмена ограничительных условий при наследовании имущества.	vorislik mulkining chegaralangan shartini bekor qilish.
DISFRANCHISE	
1. лишать гражданских прав; 2. лишать избирательных прав; 3. лишать льгот, привилегий.	1. fuqarolik huquqlaridan mahrum qilmoq; 2. saylov huquqlaridan mahrum qilmoq; 3. imtiyozlar, yengilliklardan mahrum qilmoq.
DISGORGE	
отдавать, возвращать (незаконно присвоенное).	(noqonuniy o'zlashtirishlarni) bermoq, qaytarmoq.
DISGRACE	
позорить, бесчестить, пятнать.	uyatga qo'ymoq, obro'sini to'kmoq, dog' tushirmoq.
DISHERISON	
лишение наследства.	merosdan mahrum qilish.
DISHERIT	
лишать наследства.	merosdan mahrum qilmoq.
DISHONESTY	
1. нечестность; 2. обман; мошенничество.	1.insofsiz; 2. aldov; firibgarlik.

DISHONOUR	
1. бесчестие; 2. бесчестить; 3. отказ в акцепте или оплате векселя; 3. отказывать в акцепте или оплате векселя.	1.sharmanda qilish, 2. obro'sini to'kmoq; 3. veksel to'lovi yoki imzo ko'yishdan bosh tortmoq.
DISINHERISON	
лишение наследства.	merosdan mahrum qilish.
DISINHERIT	
лишать наследства.	merosdan mahrum qilmoq.
DISINHERITANCE	
лишение наследства.	merosdan mahrum qilish.
DISINTERESTED	
незаинтересованный; беспристрастный; бескорыстный.	manfaatdor bo'lmagan; odil, adolatli; xolis.
DISINVESTMENT	
сокращение капиталовложений.	kapital qo'yilmasi qisqartish.
DISLOYAL	
1. нелояльный; 2. вероломный, предательский.	1. sodiq bo'lmagan; 2. sotqinlarcha, xoinlarcha.
DISLOYALTY	
1. нелояльность; неверность; 2. вероломство, предательство.	1. sodiq bo'lmaslik; haq bo'lmaslik; 2. sotqinlik, xoinlik.
DISMISS	
1. отклонять (иск); отказывать (в иске); 2. прекращать (дело); 3. увольнять, освобождать от должности; ~ **a complaint** отклонить жалобу, отказать в удовлетворении жалобы; ~ **for want of equity** отказать в иске по существу; ~ **testimony** опровергать свидетельские показания.	1.(da'voni) qaytarmoq; (da'vodan) voz kechmoq; 2. ishni to'xtatmoq; 3. lavozimdan bo'shamoq, ozod bo'lmoq; bo'shatish, ~ **a complaint** shikoyatni qaytarmoq, shikoyatni qondirishni rad etmoq; ~ **for want of equity** da'vo mohiyati bo'yicha rad etish; ~ **testimony** guvohlik ko'rsatmalarini rad etmoq.
DISMISSAL	
1. отклонение (иска); 2. прекращение (дела); 3. увольнение; ~ **agreed** прекращение дела в соответствии с соглашением сторон;	1. (da'voni) qaytarish; 2. (ishni) to'xtatish; 3. bo'shatish; ~ agreed tomonlarning kelishuviga binoan ishni to'xtatish;

~ **compensation** пособие при увольнении; ~ **and nonsuit** прекращение производства по делу; ~ **with prejudice** отклонение иска без сохранения за истцом права предъявления иска по тому же основанию; ~ **without prejudice** отклонение судом иска с сохранением за истцом права на предъявление в дальнейшем иска по тому же основанию; **judgement of** ~ судебное решение об отклонении иска; **lawful** ~ 1. правомерное увольнение, освобождение от должности; 2. правомерное прекращение дела; **prejudicial** ~ отклонение иска без сохранения за истцом права предъявить иск по тому же основанию; **pretrial** ~ прекращение дела до суда;	~ **compensation** ishdan bo'shatishdagi yordam puli; ~ **and nonsuit** ish bo'yicha ish yuritishni to'xtatish;~ **with prejudice** da'vogardan shu asos bo'yicha da'vo berish huquqni saqlamasdan da'voni qaytarish; ~ **without prejudice** da'vogardan shu asos bo'yicha keyinchalik da'vo berish huquqini saqlagan holda sud tomonidan da'voni qaytarish; **judgement of** ~ da'voni qaytarish to'g'risida sud qarori; **lawful** ~ 1.lavozimdan qonuniy ravishda bo'shatish, ozod qilish; ishni to'xtatish; 2. qonuniy ravishda ishni to'xtatish; **prejudicial** ~da'vogardan shu asos bo'yicha da'vo berish huquqni saqlamasdan da'voni qaytarish; **pretrial** ~ sudgacha ishni to'xtatish;
summary ~ отклонение (апелляции) по формальным основаниям; **voluntary** ~ прекращение дела по соглашению сторон/по ходатайству истца; **wrongful** ~ 1. неправомерное увольнение, освобождение от должности; 2. неправомерное прекращение дела.	**summary** ~rasmiy asoslar bo'yicha (apelyatsiyani) qaytarish; **voluntary** ~tomonlarning kelishuvi/ da'vogarning rasmiy iltimosnomasi bo'yicha ishni to'xtatish; **wrongful** ~ 1. lavozimdan noqonuniy ravishda bo'shatish, ozod qilish; 2. qonuniy ravishda ishni to'xtatish.
DISMISSION	
увольнение; освобождение от должности; отставка.	bo'shatish; lavozimdan ozod qilish; istefo berish.
DISMORTGAGE	
выкупать заложенное имущество.	garov mulkini sotib olmoq.
DISOBEY	
1. не повиноваться; не подчиняться; 2. нарушать (закон).	1. bo'yin egmaslik; bo'ysunmaslik; 2. (qonunni) buzmoq.
DISOBEYANCE	

неповиновение.	bo'yin egmaslik.
DISOBLIGE	
освобождать от обязательства.	majburiatdan ozod etmoq.
DISORDER	
нарушение общественного порядка; **mental** ~ психическое заболевание, расстройство.	jamoat tartibini buzish; **mental** ~ruhiy kasallik, buzilish.
DISPARAGEMENT	
1. умаление; принижение; 2. поношение; хула; унижение достоинства; ~ **of competitor** поношение конкурента; ~ **of goods** умаление, недооценка конкурирующих товаров; ~ **of title** принижение значимости правового титула.	1.erga urish; kamsitish; 2. haqorat qilish; so'kish; g'ururini tahqqirlash; competitor raqibni haqorat qilish; ~ **of goods** raqobatlashuvchi mollarni to'g'ri baholamaslik, erga urish; ~ **of title** huquqiy maqom ahamiyatini kamsitish.
DISPATCH	
1. посылать, отправлять; 2. отправка; 3. депеша, донесение; телеграмма; 4. быстро выполнять; 5. расправляться с кем-либо;	1. jo'natmoq, yubormoq; 2. jo'natma; 3. xabar; telegramma, 4. tezda bajarmoq; 5. kim bilandir hisoblashmoq;
~ **(money)** диспач, денежное вознаграждение за сэкономленное время при погрузке/выгрузке.	~ (money) yukni ortish/tushirish vaqtini tejaganlik uchun pul mukofoti, dispach.
DISPATCH-BEARER	
дипломатический курьер.	diplamatik kurer.
DISPENSATION	
1. изъятие, освобождение; смягчение требований закона; разрешение на отступление от норм, правил; 2. отправление правосудия.	1.olib ko'yish, ozod qilish; qonun talabini bo'shashtirish; qoida, normalardan chetga chiqishga ruxsat; 2. odil sudlovga yuborish.
DISPENSE	

1. освобождать (от обязанности); 2. обходиться; не требовать; 3. отправлять правосудие; ~ **with formalities** обходиться без формальностей; **to ~ with witnesses** обходиться без свидетелей.	1. (majburiyatdan) ozod etmoq; 2. chetlab o'tmoq; talab qilmaslik; 3. adolatga yubormoq; ~ **with formalities** rasmiyatchiliksiz chetlab o'tmoq; **to ~ with witnesses** guvoxlarsiz chetlab o'tmoq.
DISPLACE	
1. перемещать; 2. смещать, увольнять.	1.ko'chirmoq; 2. ishdan olmoq, bo'shatmoq.
DISPOSABLE	
находящийся в (свободном) распоряжении; ~ **earnings** личный доход, оставшийся после уплаты налогов; ~ **income** чистый доход; доход после уплаты налогов и сборов.	(erkin) ixtiyorda bo'lgan; ~ **earnings** soliqlarni to'lagandan keyin qolgan shaxsiy daromad; ~ **income sof** daromad; soliqlarni va yig'imlarni to'lagandan so'ng qolgan daromad.
DISPOSAL	
1. распоряжение (вещью); отчуждение (вещи); 2. рассмотрение, разрешение (дел и т. д.); 3. законченное дело; законченное производство.	1. (ashyolarni) ixtiyori; (ashyolarni) davlat ixtiyoriga o'tkazish; 2. (ish va b. larni) ko'rib chiqish, hal qilish; 3. tugatilgan ish; tugatilgan ishlab chiqarish.
DISPOSE	
(of) 1. отчуждать, распоряжаться (об имуществе); 2. устранять, опровергать (довод);	(of) 1. davlat ixtiyoriga o'tkazmoq, boshqarmoq (mulk haqida); 2. yo'qotmoq, tan olmaslik (dalil, isbot, asos; bahona, vaj);
3. изять (капитал); 4. рассматривать; разрешать (дело).	3. olib ko'ymoq (kapital); 4. (ishni) ko'rib chiqmoq, xal qilmoq.
DISPOSITION	
1. постановление, положение (договора, закона); 2. отчуждение (имущества); 3. распределение; 4. решение по делу; **post-mortuary** ~ распоряжение имуществом на случай смерти; **testamentary** ~ завещательное распоряжение.	1.qaror, nizom (shartnoma, qonun); 2. (mulkni) davlat ixtiyoriga o'tkazish; 3. taksimlash; 4. ish bo'yicha qaror; **post-mortuary** ~o'lim holatida mulkka egalik qilish; **testamentary** ~vorislik ixtiyori.
DISPOSSESS	

1. лишать владения; 2. выселять.	1. egalikdan mahrum qilmoq. 2. ko'chirmoq.
DISPOSSESSION	
1. лишение владения; 2. незаконное владение (имуществом); 3. выселение.	1.egalikdan mahrum qilish; 2. (mulkka) noqonuniy egalik qilish; 3. ko'chirish.
DISPROOF	
опровержение.	rad qilish.
DISPROVE	
опровергать; ~ **testimony** опровергать свидетельские показания.	rad qilmoq; ~ **testimony** guvohlik ko'rsatmalarini rad qilmoq.
DISPUTABLE	
спорный.	tortishuvli.
DISPUTE	
1. спорить, оспаривать; 2. спор; **justiciable** ~ правовой спор; **industrial/labour** ~ трудовой конфликт; **parties to** ~ 1. стороны в споре; 2. стороны в конфликте; **persons in** ~ участники спора, конфликта; **settle** ~ урегулировать разногласие, спор.	1. tortishmoq, kurashmoq; 2. tortishuv; **justiciable** ~huquqiy tortishuv; **industrial/labour** ~mehnat nizosi; **parties to** ~ 1.tortishuvdagi tomonlar; 2. nizodagi tomonlar; **persons in** ~ tortishuv, nizo qatnashchilari; **settle** ~ tortishuvni, ziddiyatni tartibga solmoq.
DISQUALIFICATION	
1. дисквалификация; 2. лишение права, поражение в правах;	1. kvalifikatsiya(muayyan kasbiy malaka)dan mahrum qilish. diskvalifikatsiya; 2. huquqlardan mahrum qilish;
3. неправоспособность; недееспособность; 4. обстоятельство, исключающее права; условие, исключающее обладание правом.	3. huquqiy layoqatsizlik; yuridik layoqatsizlik; 4. huquqlarni rad qiluvchi vaziyat, huquqlar egaligini rad qiluvchi sharoit.
DISQUALIFY	

1. дисквалифицировать; 2. лишать права, поражать в правах; 3. делать неправоспособным/ недееспособным; ~ **from testimony** лишить права давать свидетельские показания.	1. kvalifikatsiya(muayyan kasbiy malaka)dan mahrum qilmoq; 2. huquqlardan mahrum qilmoq; 3. huquqiy/yuridik layoqatsiz qilmoq; ~ **from testimony** guvohlik ko'rsatmalarini berish huquqidan mahrum qilmoq.
DISQUISITION	
тщательное расследование.	chuqur tergov olib borish.
DISRATIONARE	
оправдываться, опровергать обвинение.	oqlamoq, ayblovni rad qilmoq.
DISREGARD	
1. несоблюдение; пренебрежение; 2. не принимать во внимание; не соблюдать.	1.amal qilmaslik; e'tiborga olmaslik; 2. e'tibor bermaslik; rioya qilmaslik.
DISREPUTE	
плохая репутация.	yomon obro'.
DISRUPTIVE	
CONDUCT	
недостойное поведение (в суде).	nomunosib hulk (sudda).
DISSEISE	
незаконно лишать владения недвижимостью.	ko'chmas mulk egaligidan noqonuniy mahrum qilmoq.
DISSEISEE	
лицо, незаконно лишенное владения недвижимостью.	ko'chmas mulk egaligidan noqonuniy mahrum bo'lgan shaxs.
DISSEISIN	
незаконное лишение владения недвижимостью.	ko'chmas mulk egaligidan noqonuniy mahrum qilish.
DISSEISOR	
лицо, незаконно лишившее кого-либо владения недвижимостью.	ko'chmas mulk egaligidan kimnidir noqonuniy mahrum qiluvchi shaxs.
DISSEMINATION	
распространение, разглашение (сведений).	tarqatish, e'lon qilish (ma'lumotlarni).
DISSENT	

1. расходиться во мнениях; 2. расхождение во мнениях, разногласие; 3. заявлять особое мнение.	1.fikrlar bo'yicha zid bo'lmoq; 2. fikrlardagi kelishmaslik, ziddiyat; 3. o'ziga xos fikr bildirish.
DISSENTER	
(from court) судья, заявивший особое мнение по делу; ~ **from judgement** судья, в порядке особого мнения не подписавший постановление суда.	**(from court)** ish bo'yicha o'ziga xos fikr bildiruvchi sudya; ~ **from judgement** o'ziga xos fikr tartibi bo'yicha sud qarorini imzolamagan sudya.
DISSENTIENT	
судья, заявляющий особое мнение.	o'ziga xos fikr bildiruvchi sudya.
DISSOLUTION	
1. расторжение; 2. прекращение (договора); 3. ликвидация; роспуск; 4. аннулирование; 5. распад; ~ **of marriage** расторжение брака; ~ **of Parliament** роспуск парламента; ~ **of a state** распад государства; ~ **of a treaty** расторжение договора.	1. bekor qilish; 2. (shartnomani) to'xtatish; 3. likvidatsiya; tarqatib yuborish; 4. kuchdan qoldirish; 5. buzilish; ~ **of marriage** nikohni bekor qilish; ~ **of Parliament** parlamentni tarqatib yuborish; ~ **of a state** davlatni buzilishi; ~ **of a treaty** shartnomani bekor qilish.
DISSOLVE	
1. расторгать; 2. прекращать; 3. ликвидировать; аннулировать; 4. распадаться.	1.bekor qilmoq; 2. tugatmoq; 3. yo'q qilmoq, bekor qilmoq; 4. tugatmoq.
DISTINCTION	
1. различие; различение; 2. отход от правила; **enforcement ~ s** различия в правоприменении; индивидуализация правоприменения.	1. farq; farqlash; 2. qoidadan chetga chiqish; enforcement ~ **s huquqni** ko'llashdagi farq, huquqni qo'llashni indivudiallashtirish.
DISTINCTIVENESS, DISTINCTNESS	
различительная сила (товарного знака).	farqlovchi kuch (savdo belgisi).
DISTINGUISH	

устанавливать различие по существу, доказывать неприменимость в качестве прецедента, отказываться считать прецедентом.	moxiyati bo'yicha farkni o'rnatish, kabul qilmaslikni vokelik sifatida holat bo'yicha isbotlash, vokelik bo'yicha rad qilmoq.
DISTORT	
извращать, искажать (факты).	(dalillarni) buzib ko'rsatmoq, noto'g'ri talqin qilmoq.
DISTRAIN	
завладеть имуществом в обеспечение выполнения обязательства; налагать арест на имущество в обеспечение долга.	majburiyat bajarilishini ta'minlashda mulkka egalik qilmoq; qarzni ta'minlashda mulkni hibsga olmoq.
DISTRAINEE	
лицо, у которого изъято имущество в обеспечение выполнения обязательства.	majburiyat bajarilishini ta'minlashda uchun mulki olib qo'yilgan shaxs.
DISTRAINER, DISTRAINOR	
лицо, завладевшее имуществом в обеспечение выполнения обязательства.	majburiyat bajarilishini ta'minlashda mulkka egalik qiluvchi shaxs.
DISTRAINMENT, DISTRAINT	
завладение имуществом в обеспечение выполнения обязательства; наложение ареста на имущество в обеспечение долга.	majburiyat bajarilishini ta'minlashda mulkka egalik qilish, qarzni ta'minlashda mulkni hibsga olish.
DISTRESS	
1. бедствие; нужда; 2. завладение имуществом в обеспечение выполнения обязательства; 3. наложение ареста на имущество; опись имущества; 4. имущество, взятое в обеспечение выполнения обязательства;	1. ofat; ehtiyoj; 2. majburiyat bajarilishini ta'minlashda mulkka egalik qilish; 3. mulkni hibsga olish; mulkni xatlash; 4. majburiyat bajarilishini ta'minlash uchun olingan mulk;
~ **sale** продажа описанного имущества; **person in** ~ лицо, потерпевшее бедствие; **warrant of** ~ приказ о принудительном изъятии имущества.	~ **sale** xatlangan mulkni sotish; **person in** ~ ofatdan zarar ko'rgan shaxs; **warrant of** ~ mulkni majburiy olish to'g'risidagi buyruq.

DISTRIBUTE	
1. раздавать; размещать; распределять (имущество умершего среди наследников); 2. распространять, сбывать; ~ **justice** отправлять правосудие.	1. tarqatmoq; taqsimlamoq; (marhum mulkini merosxo'rlar o'rtasida) taqsimlamoq; 2. yoymoq, tarqatmoq; ~ **justice** odil sudlovga yubormoq.
DISTRIBUTEE	
наследник по закону.	qonun bo'yicha merosxo'r.
DISTRIBUTION	
1. распределение; 2. распределение имущества умершего среди наследников по закону;	1. taqsimlash; 2. qonun bo'yicha merosxo'rlar o'rtasida marhum mulkini taqsimlash;
~ **of estates** 1. распределение, разграничение вещно-правовых интересов; 2. разграничение сословий; ~ **of justice** отправление правосудия; ~ **of powers** разграничение компетенции; **final** ~ окончательное распределение имущества умершего среди наследников; **tentative** ~ предварительное распределение.	~ **of estates** 1. ashyoviy-huquqiy manfaatlarni taqsimlash, boshqalardan ajratish; 2. tabaqalarni boshqalardan ajratish; ~ **of justice** odil sudlovga yubormoq; ~ **of powers** huquqiy/ vakolatni ajratish; final ~ marhum mulkini merosxo'rlar o'rtasida yakuniy taqsimlash; **tentative** ~ dastlabki taqsimot.
DISTRIBUTOR	
дистрибьютор, распределитель; агент по продаже; сбытчик.	distribyutor, taqsimotchi; savdo bo'yicha agent; tarqatuvchi.
DISTRICT	
район; округ (административный, судебный, избирательный); **assessment** ~ территориальная единица, где производится отдельная оценка подлежащего налогообложению имущества; **consular** ~ консульский округ; **judicial** ~ судебный округ;	tuman; okrug (ma'muriy, sud, saylov); **assessment** ~ mulkka soliq solishga tegishli alohida baholash amalga oshiriladigan hududiy birlik; **consular** ~ konsullik okrug; **judicial** ~ sud okrugi;
legislative ~ избирательный округ по выборам в законодательный орган.	**legislative** ~ qonunchilik organlarga saylov o'tkazish bo'yicha saylov okrugi.
DISTURB	
1. мешать использованию права; 2. причинять беспокойство.	1.huquqdan foydalanishga halaqit bermoq; 2. bezovtalik keltirmoq.

DISTURBANCE	
1. нарушение общественного порядка; 2. нарушение пользования правом; 3. Волнение, воспрепятствование использованию права. ~ **of franchise** нарушение избирательного права; недопущение к выборам; ~ **of public meetings** 1. нарушение порядка проведения собраний; 2. препятствование проведению публичных собраний;	1.jamoat tartibini buzish; 2. huquqlardan foydalanishni buzish; ~ **of franchise** saylov huquqini buzish; saylovga yo'l qo'yilmaslik; ~ **of public meetings** 1. yig'ilishlar o'tkazish tartibini buzish; 2. ommaviy yig'ilishlar o'tkazishga to'sqinlik qilish;
~ **of public worship** препятствование публичному отправлению религиозных обрядов; **cause** ~ **s** вызывать беспорядки.	~ **of public worship** diniy marosimlarning ommaviy o'tkazishga to'sqinlik qilish; **cause** ~ **s** tartibsizlik chaqirmoq.
DIVERT	
1. направлять по другим каналам; 2. переадресовывать (товар); 3. исключать деяние/субъекта из юрисдикции уголовных судов (с передачей в административную или специальную юрисдикцию).	1. boshqa kanallar orqali yo'llamoq; 2. faytadan yo'naltirmoq (mol); 3. harakatni to'xtatmoq, ya'ni subektni jinoyat sudi yurisdiksiyasidan (sud qilish huquqidan) (ma'muriyatga o'tkazish yoki maxsus sud qiluvchi organlarga o'tkazish).
DIVEST	
лишать (права собственности, полномочий, правомочий).	(egalik huquqi, vakolat, qonuniy huquqqa egaligidan) mahrum qilmoq.
DIVIDE	
1. делить(ся), подразделять(ся); 2. расходиться во мнениях.	1. bo'l(in)moq, ajra(l)moq; 2. fikrlar bo'yicha zid bo'lmoq.
DIVIDEND	
дивиденд; ~ **income** дивидендный доход; **accrued** ~ дивиденд, об'явленный к оплате; **accumulated** ~ накопленный дивиденд; **deferred** ~ **s** отсроченные дивиденды; **unpaid** ~ невыплаченный дивиденд.	dividend; ~ **income** divident daromad; **accrued** ~ to'lanadigan divident; **accumulated** ~ yig'ilgan divident; **deferred** ~ **s** kechiktirilgan dividentlar; unpaid ~ to'lanmaydigan divident.

DIVISIBLE	
делимый (договор).	bo'linadigan (shartnoma).
DIVISION	
1. деление, разделение, раздел; 2. часть; раздел; отдел; отделение; 3. административный, избирательный округ; 4. расхождение во взглядах, разногласия; 5. разделение голосов при голосовании; ~ **of opinion** отсутствие единого мнения у судей; **administrative** ~ административное деление.	1.bo'lish, bo'linish, bo'lim; 2. qism; bo'lim; bo'linma; 3. ma'muriy, saylov okrugi; 4. qarashlar bo'yicha zid bo'lish, qarama-qarshilik; 5. ovoz berishda ovozlarning bo'linishi; ~ **of opinion** sudyalardagi yagona fikrning yo'qligi; **administrative** ~ ma'muriy bo'linish.
DIVORCE	
1. расторгать брак; разводиться; 2. расторжение брака, развод; ~ **court** суд по бракоразводным делам; ~ **decree** судебный приказ о разводе; **bill of** ~ решение суда о расторжении брака; **case of** ~ дело о разводе; **defended** ~ развод при возражении против него со стороны ответчика; **limited** ~ постановление суда о раздельном жительстве супругов.	1.nikohni bekor qilmoq; ajrashmoq; 2. nikohni bekor qilish, ajrashish; ~ **court** nikohdan ajratish ishlari bo'yicha sud; ~ **decree** ajrashish haqida sud buyrug'i; **bill of** ~ nikohni bekor qilish haqida sud qarori;**case of** ~ajrashish haqida ish; **defended** ~javobgar tomonidan unga e'tiroz ko'rsatilgan holatdagi ajrashish; **limited** ~er-xotinlarning alohida yashashi to'g'risida sud qarori.
DIVORCEE	
разведенный муж; разведенная жена.	ajrashgan er; ajrashgan xotin.
DIVORCEMENT	
расторжение брака.	nikohni bekor qilish.
DIVORCER	
1. лицо, расторгающее брак; 2. основание, причина развода.	1.nikohni bekor qiluvchi shaxs; 2. ajrashish sababi, asosi.
DOCK	
скамья подсудимых.	sudlanuvchi kursisi.
DOCKAGE	
сбор за пользование доком, доковый сбор.	dok(port inshooti)dan foydalanish uchun yig'im, dok(port inshooti) yig'imi.
DOCKET	

1. досье производства по делу; книга записей; 2. вести досье; вносить в досье судопроизводства; 3. краткое содержание документа; выписка; 4. список дел к слушанию; 5. квитанция таможни об уплате пошлины; **appearance** ~ журнал судопроизводства по делу; **civil** ~ список гражданских дел к слушанию; **execution** ~ журнал исполнительного производства; **judgement** ~ журнал записей судебных решений; **trial** ~ список дел к слушанию.	1. ishni ko'rish bo'yicha hujjatlar to'plami; qaydlar kitobi; 2. hujjatlar to'plamini to'plamoq; 3. hujjatning qisqacha mazmuni; ko'chirma; 4. ko'riladigan ishlar ro'yhati; 5. boj to'laganligi haqida bojxona kvitansiyasi;**appearance** ~ish bo'yicha sudda ish yuritish jurnali; **civil** ~ko'riladigan fukarolik ishlari ro'yhati; **execution** ~ ijro ishi yuritish jurnali; **judgement** ~ sud qarorlarini qayd qilish jurnali; **trial** ~ ko'riladigan ishlar ro'yhati.
1. документ; свидетельство; 2. документировать, подтверждать документами; 3. выдавать документы; ~ **a case** приобщить документы к судебному делу; ~ **examiner** эксперт по документации; **~s of the case in court** материалы судебного дела, судебное досье; **basic source** ~ первичный документ; **contested** ~ оспариваемый документ; **legal** ~ 1. правовой документ; 2. законодательный памятник; **original** ~ подлинный документ, подлинник; **private** ~ частно-правовой документ; **public** ~ публично-правовой документ; **settle** ~ составлять документ; **suppress** ~ изымать документ; **testamentary** ~ документ, содержащий завещательные распоряжения.	1. hujjat; guvohnoma; 2. hujjatlashtirmoq, hujjatlar bilan tasdiqlamoq; 3. hujjatlar bermoq; ~ a case sud ishiga hujjatlarni qo'shib qo'ymoq; ~ **examiner** hujjatlar bo'yicha ekspert; **~s of the case in court** sud ishiga materiallari, sud ishiga doir hujjatlar to'plami; **basic source** ~birinchi darajali hujjat; **contested** ~ huquq tralashinadigan hujjat; **legal** ~ 1.huquqiy hujjat; 2. qonunchilik xaykali; **original** ~haqiqiy hujjat, asl nusxa; **private** ~xususiy-huquqiy hujjat; **public** ~ommaviy-huquqiy hujjat; **settle** ~hujjat tuzmoq; **suppress** ~hujjatni olib qo'ymoq; **testamentary** ~ vasiyat farmoyishini ichiga olgan hujjat.
DOCUMENTATION	
1. документы; документация; 2. выдача документов.	1. hujjatlar; dokumentatsiya; 2. hujjatlarni topshirish..
DOLUS	
умысел.	niyat, qasd, g'araz.

1. даритель; 2. лицо, предоставляющее право; ~ **intestate** даритель, умерший без завещания; ~ **testate** даритель, умерший, оставив завещание.	1. hadya qiluvchi; 2. huquqni taqdim qiluvchi shaxs; ~ **intestate** vasiyatsiz vafot etgan hadya qiluvchi; 2. ~ **testate** vasiyatnoma qoldirib vasiyatsiz vafot etgan hadya qiluvchi.
DOOMSDAY	
день суда.	sud kuni.
DOOMSMAN	
судья.	sudya.
DORMANCY	
временное приостановление исполнения решения.	qaror ijrosini vaqtinchalik to'xtatib turish.
DOTAGE	
старческое слабоумие.	qarilikdan aqli zaiflik.
DOTATION	
1. дар, пожертвование; 2. предоставление приданого.	1.hadya, hayr-ehson; 2. sepni taqdim etish.
DOUBLE	
1. двойной; 2. копия, дубликат; 3. соединяющий разные основания иска; соединяющий разные защитные документы;	1.ikkilangan; 2. nusxa, dublikat; 3. da'voga turli asoslarni qo'shilishi; turli himoya hujjatlarini qo'shilishi;
~ **hearsay** показания через третье лицо; ~ **indemnity** двойное возмещение убытков; ~ **nationality** двойное гражданство.	~ **hearsay** uchinchi shaxs tomonidan ko'rsatma; ~ **indemnity** zarar ikki hissa qoplash; ~ **nationality** ikki fuqarolik, ikki mamlakatning fukarosi bulish.
DOUBT	
1. сомневаться, подвергать сомнению; 2. сомнение; **reasonable** ~ разумные основания для сомнения; разумное, обоснованное сомнение; **unreasonable** ~ необоснованное сомнение.	1. shubhalanmoq, shubhaga bormoq; 2. shubha; **reasonable** ~ shubha qilish uchun oqilona asoslar; oqilona, asoslangan shubha; **unreasonable** ~ asoslanmagan shubha.
DOWER	
вдовья часть наследства.	merosning bevaga tegishli ulushi
DOWNFALL	

падение, крушение; крах; разорение; банкротство.	qulash, halokat; barbod bo'lish; xonavayron bo'lish; bankrotlik.
DOWRY	
1. приданое; 2. пособие; **one-time** ~ единовременное пособие.	1. sep; 2. nafaqa; **one-time** ~ bir martalik nafaqa.
DOYEN	
дуайен, декан, старейшина.	duayen, dekan, stareyshina.
DRAFT	
1. проект; 2. составлять проект; 3. переводный вексель, тратта; 4. призывать в армию; **bank/banker's** ~ тратта, выставленная одним банком на другой; банковский переводной вексель; **issue** ~ выставлять переводной вексель/ тратту; **long** ~ долгосрочная тратта, вексель.	1.loyiha; 2. loyiha tuzmoq; loyixalashtirmok. 3. jo'natma veksel, tratta; 4. xarbiy xizmatga chaqirilmoq; **bank/banker's** ~ bir bankdan boshqasiga qo'yilgan tratta; bank jo'natma vekseli; **issue** ~ jo'natma veksel/tratta qo'ymoq; **long** ~ uzoq muddatli tratta, veksel.
DRAFTING	
составление проекта документа, составление законопроекта.	hujjatni loyihasini tuzmoq, qonun loyihasini tuzmoq.
DRAW	
